


Xakberdiev Kaxramon Kurbanovich

MDH MAMLAQATLARI XALQARO REYTING TIZIMLARIDA

O'quv qo'llanma



0X0000042294

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI


Xakberdiev Kaxramon Kurbanovich

**MDH MAMLAKATLARI XALQARO REYTING
TIZIMLARIDA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lif vazirligi tomonidan

5A231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (MDH
mamlakatlari) mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tasdiqlangan

O'QUV QO'LLANMA



O'quv qo'llanmada xalqaro reyting va indekslarning mazmuni, ahamiyati, ularni tashkil etuvchi elementlarning mohiyati yoritib berilgan, MDH mamlakatlarining Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI, Global Competitiveness Index), Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index), Doing business reytingi, Inson taraqqiyoti indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksida tutgan o'rni, uni oshirish imkoniyatlari va yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rmini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar atroflicha bayon etilgan.

MDH mamlakatlarining xalqaro reyting tizimidagi o'rni va uni oshirish masalalarini chuqurroq o'rganish uchun o'quv qo'llanmada ma'ruza materiallarining qisqartirilgan shakli, testlar, mustaqil ta'lif, nazorat savollari va adabiyotlar ro'yxatini keltirilgan.

"MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" o'quv qo'llanmasi 5A231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (MDH mamlakatlari) mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

I.f.n. Sh.J.Ermamatov umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:

Sultanov B.F. – Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti direktori, i.f.d.

Xusanov Ch.K. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedrasи katta o'qituvchisi, i.f.n.

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnomma №3, 2020 yil 3 dekabr)

© Kakberdiev K.K.

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari, sifat va tarkibiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miqyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va buniyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir.

Xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirdorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini beradi. Bu reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Shu sababli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar hukumatlari, xorijiy investorlar va keng xalqaro jamoatchilik u yoki bu davlat haqidagi ma'lumotlarni xalqaro reyting va indekslardan oladi. Ushbu davlat bilan hamkorlik qilish, investitsiya kiritishdan avval ushbu davlatning turli reyting va indekslardagi o'rni bu indekslarning aniq indikatorlaridan kelib chiqib bat afsil o'rganiladi. Shu bilan birga xalqaro reyting va indekslardagi davlatning o'rni uning xalqaro obro'-e'tiboriga ham ta'sir qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar va mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni o'rtasida kuchli korrelyasion bog'liqlik mavjud. Odatta mamlakatlar qanchalik yuqori reytingga ega bo'lsa, ularning iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi shunchalik ko'p va aksincha. Bu reyting va indekslar mamlakatlarda mavjud muammolar to'g'risida ma'lumot beradi va ayni vaqtida milliy hukumatlar qaysi yo'nalishda ish olib borishlari lozimligini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan so'nggi yillarda O'zbekistonda mamlakatimizning xalqaro

reyting va indekslardagi o‘rnini oshirish borasida qator ishlar amalgam oshirilmoqda.

Xususan, 2019 yil 25 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-son Qarori, 2020 yil 2 iyunda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekistonning ustuvor xalqaro reyting va indekslarda egallayotgan o‘rinlarini qayd etib borish, vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalarining ijrosini monitoring qilish hamda monitoring natijalari bo‘yicha aholi, xorijiy tashkilotlar va ekspertlar, ilmiy izlanuvchilar kabi foydalanuvchilarga ochiq va shaffof ma‘lumotlarni muntazam etkazib berishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalı ishga tushirildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarda o‘rganilayotgan mintaqalarning mamlakatlarining xalqaro reyting va indekslarda tutgan o‘rn bo‘yicha mustaqil fikr yurita olish, bu mamlakatlar erishgan natijalarni O‘zbekiston ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish maqsadimi ko‘zda tutadi.

Muallif ushbu qo‘llanmaning mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning uslubiy masalalari yuzasidan bildirilgan barcha xolisona fikr-mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qiladi va ularni kelgusi nashrlarda inobatga oladi.

1.1. "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanining predmeti va metodi

1.2. Fanning maqsad va vazifalari

1.3. "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanining metodologik asoslari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari

1.1. "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanining predmeti va metodi

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobjiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko'rيلayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas.

Mazkur holat xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mas'ul vazirlik va idoralarda baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va boshqa davlatlarning ijobjiy tajribasini o'z ichiga olgan tegishli ma'lumotlar bazasini, xodimlarda esa xalqaro reytinglar metodologiyasini qo'llash bo'yicha dunyoqarashni shakllantirish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash maqsadida 2019 yil 25 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimini (keyingi o'rinnarda – Milliy monitoring tizimi) yaratish vazifasi qo'yildi va boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam

beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tiziminining tarkibiy qismi etib belgilandi.

Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro budget hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting tashkilotlari bilan rasmiy aloqlar yo'liga qo'yildi.

Yuqoridagilar "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" kursini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Har qanday fan singari "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fani ham o'z predmeti va metodlariga ega. U fan sifatida jamiyat, uning rivojlanishi, manfaat va rag'batlar, munosabatlarni, o'rganadigan, shuningdek, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslikni tadqiq etuvchi ijtimoiy fanlar orasida o'ziga xos o'ringa ega.

"MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanining predmeti bo'lib MDH mamlakatlarining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va uni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi.

"MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanini o'rganish davomida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- tizimli tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- SWOT tahlil;
- mantiqiy mushohada va boshqalar.

1.2. Fanning maqsad va vazifalari

Fanning maqsadi talabalarga Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI, Global Competitiveness Index), Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index), Doing business reytingi va boshqa indekslarning mohiyati, ushbu indeks va reytinglarning tashkil etuvchilari, MDH mamlakatlarining xalqaro reyting va indekslarda ishtiroki va o'rni kabi masalalar to'g'risida bilim berish, talabalarning bu boradagi bilimlari, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga global raqobatbardoshlik indeksi (GCI, Global Competitiveness Index) va unda MDH mamlakatlarining o'rni, global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index)da MDH mamlakatlarining ishtiroki, biznes yuritish (Doing business) reytingi va

uning MDH mamlakatlarida biznes muhitiga baho berishdagi roli, MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichlari, O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksi va uni oshirish imkoniyatlari kabi masalalar bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzlusizlikda o'rgatishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:

- global raqobatbardoshlik indeksi va uning asosiy tashkil etuvchilari, biznes yuritish reytingi va uning komponentlari, global innovatsiya indeksining mohiyati, inson taraqqiyoti indeksining mohiyati va paydo bo'lishi, inson taraqqiyoti indeksining asosiy tashkil etuvchilari, inson taraqqiyoti indeksini hisoblash usuli, O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'rni, O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va milliy dasturlar, iqtisodiy erkinlik indeksining mohiyati va uni tashkil etuvchi indikatorlari tavsifi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- MDH mamlakatlarining global raqobatbardoshlik indeksidagi o'rni, global raqobatbardoshlik indeksi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik, Rossiyaning global innovatsiya indeksidagi o'rminig o'zgarishi va uning sabablari, Qozog'istonning global innovatsiya indeksidagi o'rni va uning o'zgarishi sabablari, Doing businessning mamlakatda tadbirdorlik rivojlanish darajasiga baho berishning muhim mezioni ekanligi, inson taraqqiyotini ifodalovchi boshqa indekslar: tengsizlikni hisobga olib tuzatilgan inson taraqqiyoti indeksi, gender rivojlanishi indeksi, gender tengsizligi indeksi, ta'lim tizimi sifatini yaxshilash inson taraqqiyotini jadalldشتirishning muhim omili ekanligini bilishi va ulardan foydalana olishi;

- Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonning global raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlari, O'zbekistonning global raqobatbardoshlik indeksiga a'zo bo'lishining ahamiyati, O'zbekistonning global innovatsiya indeksida ishtirokini ta'minlash zarurati, MDH mamlakatlarining biznes yuritish reytingidagi o'rning o'zgarishi xususiyatlari, biznes yuritish reytingi va investitsiyalar oqimi o'rtasidagi bog'liqlik, inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- O'zbekistonning biznes yuritish reytingidagi o'rni va uni oshirish yo'llari, MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksining tendensiyalari va uni oshirish yo'llari, MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rning qiyosiy tahlili, MDH mamlakatlarining iqtisodiy

erkinlik indeksidagi mavqeini oshirish istiqbollari bo'yicha tadqiqotlarning tizimli tahlil metodlarini qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.

1.3. "MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" fanining metodologik asoslari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari

Ma'lumki, o'r ganilayotgan mintaqaga mamlakatlarining xalqaro reyting tizimlarida tutgan o'rni xo'jalik subektlarining fe'l-atvori orqali belgilanadigan ijtimoiy muhit, sharoit bilan bog'liq. Ammo bu fan (kurs) abstrakt tushuncha va qoidalardan iborat emas. U quyidagi ko'rsatkichlarda ifodalananadigan aniq raqam, iqtisodiy hodisa va tendensiyalarga asoslanadi:

– mutlaq o'lchamda (miqdor ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish omillari hajmi ko'rsatkichlari);

– nisbiy o'lchamda (ulushi, hissasi, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, qo'shimcha o'sish sur'atlari);

– o'tacha o'lchamda (ishlab chiqarishning o'tacha yillik hajmi, mehnat unumдорligining o'sish sur'atlari).

"MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" kursining asosi nazariy-iqtisodiy fanlar tizimi – "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makro va mikro iqtisodiyot", "Institutsional iqtisodiyot", "Statistika", "Jahon iqtisodiyoti", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlari" hisoblanadi.

"Iqtisodiyot nazariyasi" ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning birlamchiligidan kelib chiqadi, mamlakat iqtisodiyotining dinamikasini ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy qonunlar o'zaro ta'siri asosida ko'radi. Shu bilan birga u milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

"Makro va mikro iqtisodiyot" makro-, mezo- va mikrodarajada davlat boshqaruvi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Institutsional iqtisodiyot esa xo'jalik subektlari, kishilar faoliyatining me'yori va qoidalarni ochib beradi. "Statistika" fani jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va voqealarni miqdoriy jihatdan ularning sifati bilan uziyi bog'liqlikda tadqiq etadi.

"MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida" o'quv kursi sifatida nazariy iqtisodiy fanlarning yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlaridan o'ziga zarur bo'lgan qoida, xulosa va tavsiyalarni oladi. U milliy iqtisodiy tizim faoliyatining nazariy asoslari va rivojlanish qonuniyatlarini keng empirik materialdan foydalanish orqali yoritib berishi lozim.

xalqaro reyting va indekslar, xorijiy investitsiyalar, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, mantiqiy mushohada, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, iqtisodiyot nazariyasi.

Qisqacha xulosa

“MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida” fani magistratura bosqichi tinglovchilari uchun mo’ljallangan o’quv kursi hisoblanadi va unda mintaqa mamlakatlarining xalqaro reytinglardagi ishtiroki, egallagan o’rni, istiqbollari va ushbu sohada mavjud muammolar o’rganiladi.

MDH mamlakatlarining xalqaro reyting tizimlaridagi ishtiroki borasida amalga oshirib kelayotgan chora-tadbirlari kursning predmeti sifatida tanlangan. Kursni o’rganishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT kabi metodlardan foydalanish ko’zda tutilgan.

Talabalarning o’rganilayotgan mamlakatlarning reyting tizimlaridagi ishtiroki borasidagi bilimlari, malaka va ko’nikmalarini mustahkamlash o’quv kursning maqsadi etib belgilangan.

O’quv kursining vazifalari sifatida MDH mamlakatlarining xalqaro reyting ko’rsatkichlari (indekslari) va ularni oshirish imkoniyatlari kabi masalalar bo'yicha talabalarga nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzlusizlik tamoyillari asosida o’rgatish belgilab olingan. Mavzuda shuningdek, “MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida” fanining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o’rni va o’zaro bog’liqligi ochib berilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun “MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida” fani o’rganiladi?
2. Fanning predmeti qanday unsurlardan tashkil topgan?
3. O’quv kursini o’rganishda qaysi metodlardan foydalilanildi?
4. Fanning maqsadi nimadan iborat?
5. O’quv kursini o’rganishda qanday vazifalar belgilanagan?
5. “MDH mamlakatlari xalqaro reyting tizimlarida” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari to’g’risida fikr bildiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rmini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-sonli qarori / <https://www.lex.uz/docs/4215422>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rmini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-sod Farmoni /<https://lex.uz/docs/4838762>

3. Индексы и индикаторы человеческого развития. /Обновленные статистические данные 2018. – М.: 2019 – 122 с.

4. Doing business 2019. Training for Reform. – 2019 International Bank for Reconstruction and Development /The World Bank 1818 H Street NW, Washington DC 20433

5. Terry Miller Anthony B. Kim James M. Roberts. 2019 Index of Economic Freedom. /2019 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002

6. 2019 Index of Economic Freedom. /2019 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002

7. 2019 Index of Economic Freedom. /2019 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002

8. 2019 Index of Economic Freedom. /2019 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002

2-MAVZU. GLOBAL RAQOBATBARDOSHLIK INDEKSI (GCI, THE GLOBAL COMPETITIVENESS INDEX) VA UNDA YAQIN SHARQ MAMLAKATLARINING O'RNI

- 2.1. Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI, The Global Competitiveness Index) – global tadqiqot va iqtisodiy raqobat bo'yicha mamlakatlar reytingni ifodalovchi muhim ko'rsatkich
- 2.2. MDH mamlakatlarining GRIdag'i o'rni
- 2.3. O'zbekistonning GRIga a'zo bo'lishining ahamiyati

2.1. Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI, The Global Competitiveness Index) – global tadqiqot va iqtisodiy raqobat bo'yicha mamlakatlar reytingni ifodalovchi muhim ko'rsatkich


Raqobat ustunligi nazariyasidagi fikrlardan kelib chiqqan holda mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlash ko'rsatkichlar tizimi shakllanib bordi. Jumladan, butun jahon mamlakatlari raqobatbardoshligini aniqlashda Jahon iqtisodiy forumi e'lon qiladigan Global raqobatbardoshlik indeksi va Shveysariyaning Menejmentni rivojlantrish instituti tomonidan e'lon qilinadigan Jahon raqobatbardoshlik reytingi mavjud bo'lib, Global raqobatbardoshlik indeksi nufuzli va ta'sir doirasi yuqori bo'lgan reyting hisoblanadi.

2004 yildan buyon Jahon iqtisodiy forumi tomonidan AQSHning Kolumbiya universiteti professori Xavier Sala-i-Martin ishlab chiqqan metodologiya asosida Global raqobatbardoshlik indeksi hisoblab chiqiladi.¹ Ushbu indeks orqali milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshlik darajasi aniqlanadi. Shuningdek, mamlakat va unda faoliyat yurituvchi institutlar o'rta muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini ta'minlay olishi baholanadi. Global raqobatbardoshlik indeksi hisobotlarda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining yuqori ko'rsatkichlariga ega mamlakatlar o'z fuqarolarining yuqori darajadagi farovonligini ta'minlay olishi ta'kidlanadi. Shu bilan birgalikda mamlakatlarning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi to'siqlarni engib o'tishda indeksdan foydalanish tavsiya etiladi, ya'ni indeksda ifodalangan ko'rsatkichlar orqali mamlakatlarning iqtisodiy siyosatdagi muammoli jihatlarni tahlil qilish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida strategiyalar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

¹ <https://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi juda ko'plab omillarni hisobga olish orqali aniqlanadi. Global raqobatbardoshlik indeksi 12 guruhga jamlangan 114 ta ko'rsatkichlardan tashkil topgan.

GLOBAL RAQOBATBARDOSHLIK INDEKSI



2.1-rasm. Global raqobatbardoshlik indeksining asosiy ko'rsatkichlari²

Tadqiqotchilar iqtisodiyot raqobatbardoshligini to'g'ri baholash maqsadida doimiy ravishda ko'rsatkichlarni takomillashtirib borishadi. Ulardan 2/3 qismi kompaniyalar o'ttasida o'tkazilgan global so'rov natijalari, qolgan 1/3 qismi mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar hisoblanadi.

² The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org

GRI hisoblashda mamlakatlarning guruhlanishi va subindekslar ulushi³

	Rivojlanish darajasi				
	1-bosqich. Ishlab chiqarish omillari hisobiga rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot	1-bosqichdan 2-bosqichga o'tayotgan iqtisodiyot	2-bosqich. Resurslardan samarali foydalаниш hisobiga rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot	2-bosqichdan 3-bosqichga o'tayotgan iqtisodiyot	3-bosqich. Innovatsion faoliyat hisobiga rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmi (AQSH dollar)*	<2000	2000-2999	3000-8999	9000-17000	>17000
Bazis talablar subindeksi	60%	40-60%	40%	20-40%	20%
Samaradorlikni oshiruvchi ko'rsatkichlar subindeksi	35%	35-50%	50%	50%	50%
Innovatsiyalar va omillar subindeksi	5%	5-10%	10%	10-30%	30%

*Mineral resurslarga yuqori darajada bog'liq bo'lgan mamlakatlar uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmi rivojlanish darajasini aniqlovchi yagona mezon emas.

Ushbu ko'rsatkichlar nazariy va empirik tadqiqotlarga asoslangan bo'lib, hech bir ko'rsatkich yakka holda iqtisodiyot raqobatbardoshligini ifodalamaydi. Har bir ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq: kadrlar malakasining pastligi mehnat bozori samaradorligiga salbiy ta'sir etadi, bu esa o'z navbatida ta'lif sohasiga ajratiladigan xarajatlarning ko'paytirilishiga undashi yoki foyda miqdori investitsiyalar hajmidan oshsagina, tadbirkorlar yangi texnologiyalarni joriy etishi mumkin, shundan kelib chiqqan holda, Jahon iqtisodiy forumi mutaxassislari barcha faktorlar o'rtaisdagi aloqadorlikni hisobga olgan holda iqtisodiy siyosat yuritadigan mamlakatlar yuroqi raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga erishishini ta'kidlaydilar. Tabiiyki tizimli islohotlar bilan natijaga erishish imkoniyatlari ortadi, chunki ma'lum bir sohada olib borilayotgan islohotlarning natijalari odatda bir necha yillardan so'ng namoyon bo'ladi.

³ The Global Competitiveness Report 2017-2018 World Economic Forum. Geneva, 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017-2018 P. 12. www.weforum.org

Global raqobatbardoshlik indeksi (GRI)ni hisoblashda mamlakatdagi samaradorlik va unumdarlik darajasini aniqlovchi institutlar, siyosat va omillar jamlanmasi baholanadi. Samaradorlik va unumdarlik darjasini o'z navbatida iqtisodiyotda erishish mumkin bo'lgan farovonlik darajasini va investitsiyalar kiritish orqali olingen foyda me'yorini aniqlash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, raqobatbardosh iqtisodiyot bu barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlay olishni anglatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, GRI 12 guruhga ajratilgan 114 ta ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi va har bir ko'rsatkich 1-7 ball oralig'ida baholanadi. GRIda mayjud uch subindeks ma'lum bir ulushga ega, ya'ni mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmiga ko'ra besh guruhga ajratiladi va yakuniy indeks hisoblanishida bazis talablar subindeksi 20-60 %, samaradorlikni oshiruvchi ko'rsatkichlar subindeksi 35-50 %, innovatsiyalar va omillar subindeksi 5-30 % ulushga ega bo'ladi.

O'z navbatida har bir subindeks qamrab olgan ko'rsatkichlar subindeksni hisoblashda ma'lum bir ulushlarni tashkil etishi belgilangan. Yuqoridagi jadvalda mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadiga ko'ra guruhlanishi va ularga mos subindekslar ulushi keltirilgan.

2.2. MDH mamlakatlarining GRIdagi o'rni

Mamlakatalar guruhlarga ajratilish jarayonida mineral resurslarga yuqori darajada bog'liq bo'lgan mamlakatlar uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmi rivojlanish darajasini aniqlovchi yagona mezon emasligi ta'kidlangan. Jami eksport hajmida mineral resurslarning ulushi 70 %dan yuroqi bo'lsa 1-guruh mamlakatlari qatoridan joy oladi. Bunda Xalqaro savdo markazi tomonidan ishlab chiqilgan savdoning samaradorlik indeksi muvofiq mineral resurslar qatoriga xom neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ko'mir, metallar, qimmatbaho toshlar va boshqa foydali qazilmalar kiritiladi. Misol uchun, ushbu reytingni hisoblashda Quvayt 1-bosqichdan 2-bosqichga o'tayotgan iqtisodiyot, Saudiya Arabiston 2-bosqichdan 3-bosqichga o'tayotgan iqtisodiyot, BAA esa innovatsion faoliyat hisobiga rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot sifatida e'tirof etilgan.

Davlat va xususiy sektor manfaatdor tomonlarining xatti-harakatlari va samarali faoliyat ko'rsatishi institutsional muhitni belgilab beradi. Alovida shaxslar, firmalar va hukumatning o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi huquqiy va tashkiliy tizim davlat tashkilotlarining qay darajada

samarali faoliyat yuritayotganligini aniqlaydi, shuningdek, raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir o'tkazadi. Davlat institutlari faoliyatini baholashda mulk huquqlari, intellektual mulk huquqi himoyasi, korrupsiya darajasi, sud tizimi, davlat sektori samaradorligi, jumladan, davlat xarajatlari sarflanish samaradorligi, davlat siyosatining shaffofligi, xafvsizlik masalalari hisobga olinadi. Xususiy institutlar faoliyati korporativ boshqaruv madaniyati, audit va hisobot topshirish standartlarining qat'iyligi, minoritar aksionerlar, investorlar huquqlarining himoya qilinish darajasi orqali aniqlanadi.

Keng ko'lardagi va rivojlangan infratuzilma iqtisodiyotlarning samarali amal qilinishi ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali transport tizimi, jumladan yuroqi sifatli yo'llar, temir yo'llar, portlar va havo transporti tarbirkorlarning mahsulot va xizmatlarni xavfsiz va o'z vaqtida olish, shuningdek eksport va import xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Elektr energiyasi etkazib berilishida barqarorlik bo'lishi korxonalarning uzilishlarsiz ishlashiga sharoit yaratadi. Mustahakam va keng miqyosli telekommunikatsiya tizimi esa tez va to'siqlarsiz axborotlarni olish imkonini berib, iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi va tezkor qarorlar qabul qilishga sharoit yaratadi. Shuningdek, mamlakatda samarali infratuzilmaning mavjudligi transport, telekommunikatsiya xizmatlari eksporti rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Masalan, BAA aviakompaniyalari, Singapur porti, Daniyaning Maersk logistik kompaniyasi, AQSH FedEx yoki Germaniyaning DHL pochta eltuv xizmatlari jahoning ko'plab mamlakatlarida faoliyat olib boradi va o'z mamlakatlari iqtisodiyotiga katta naf keltiradi.

Barqaror makroiqtisodiy muhit nafaqat nafaqat biznes uchun, balki mamlakat raqobatbardoshligi uchun ahamiyatli hisoblanadi. Davlat byudjeti balansi, yalpi milliy jamg'arish, inflyasiya, davlat qarzları, mamlakatning kredit reytinggi makroiqtisodiy muhit ko'rsatkichida aks etadi. Gretsiya tashqi qarzları bilan bog'liq muammolar sababli kredit reytinggi tushib ketishiga olib keldi, yakunda bu mamlakat raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Agarda inflyasiya darajasi keskin oshib ketsa firmalar samarali faoliyat olib borolmaydi, xorijiy investorlarning biznes yuritish faolligi pasayishi mumkin.

Aholining umr ko'rish davomiyligi, yuqumli kasalliklar tarqalish darajasi sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi aniqlash ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. Shuningdek, boshlag'ich ta'lim sifati va qamrab olish darajasi ham hisobga olinib, ushbu ko'rsatkich malakali ishchi kuchini tayyorlashning bazis talabi bo'lgan boshlang'ich ta'limning rivojlanganlik

darajasini aks ettiradi.

Globallashuv jarayoni milliy iqtisodiyotlardan o'zgaruvchan ishlab chiqarish jarayoni talablariga tez moslashuvchan, kompleks vazifalarni bajara oladigan malakali ishchi kuchini talab etmoqda. Malakali ishchi kuchi sifatli ta'lif va qayta malaka oshirish tizimi orqali ta'minlanadi. Bunda o'rta va oliy ta'limga qamrab olinganlik darajasi, ta'lim tizimi, matematika va tabiiy fanlar ta'limi sifati, ixtisoslashgan malaka oshirish markazlari va kadrlarni tayyorlash darajasi singari ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Mahsulotlar va xizmatlar bozori samaradorligida ichki va tashqi raqobat muhitini baholanib, monopoliyaga qarshi kurashish, soliq tizimi, biznesni boshlash uchun talab etiladigan jarayonlar soni va unga ketadigan vaqt, savdo to'siqlari va tariflari, import YAIMdag'i ulushi, iste'molchilarning talab shart-sharoitlar singari ko'rsatkichlar tahlil etiladi. Ichki raqobat quydagicha hisoblanadi:

$$(C+I+G+X)/(C+I+G+X+M),$$

bu erda C – iste'mol, I – investitsiyalar, G – davlat xarajatlari, X – eksport, M – import.

Tashqi raqobat esa $M/(C+I+G+X+M)$ importning iste'mol, investitsiyalar, davlat xarajatlari, tashqi savdo hajmiga nisbatli orqali aniqlanadi.

Sog'lom ichki raqobat muhiti mahalliy firmalarning tashqi bozorlarda ham o'z o'mini topishida katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish unumdorligi va firmalar faoliyati samaradorligiga ta'sir o'tkazadi.

Moliya bozori rivojlanganligi ichki va xorijiy moliyaviy resurslarni milliy iqtisodiyotga jalb etish imkonini berib, investitsiyalar hajmini oshiradi. Texnologik tayyorgarlik ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida mavjud yoki yangi texnologiyalarni ko'llash, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi (internetga va uyali aloqa tizimiga ularish, internet va uyali aloqa tizimi foydalanuvchilarini moslashuvchanlik va imkoniyatlarni ifodalaydi. Misol uchun hozirda aksariyat kompaniyalar OAV bilan bir qatorda o'z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilmoqda. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatga xorijiy texnologiyalar kirib kelishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Ichki va tashqi bozor hajmi firmalarga bozor ko'lamidan foydalanish imkonini berib, faoliyatini yanada kengaytirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, Xitoy firmalari yirik mahalliy bozor imkoniyatlaridan

foydalangan holda ko'lam samarasi orqali mahsulot tannarxi raqobatbardoshligiga erishishmoqda. Bundan tashqari, Xitoy o'z firmalari mahsulot va texnologiyalari eksport bozorini kengaytirish maqsadida Janubiy Amerika va Afrika mamlakatlardagi loyihalari sonini oshirmoqda.

Alohibda firmalar strategiyasi, mamlakatdagi biznes vakillarining hamkorligi ishlab chiqarish zanjirini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'molchi va ta'minotchi kompaniyalarning geografik jihatdan yaqin joylashuvi, ya'ni klasterli ishlab chiqarish tizimi ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiyligi ta'sir o'tkazishi, transaksion xarajatlarini kamaytirishi va yakunda mahsulot tannarxi kamayishiga olib kelishi mumkin. Xitoyda mavjud klasterli ishlab chiqarish iste'molchilarga tovarlarni tez fursatlarda, nisbatan arzon narxlarda etkazib berish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Xususan, GRIda tadqiqotlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar, yangi texnologiyalarni yaratish uchun bazis bilimlarni shakllantiruvchi ilmiy-texnik muasasalar faoliyati sifati, oliv ta'lim muasasalari va ishlab chiqarish korxonalarining tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sohasidagi hamkorligi, intellektual mulk huquqi himoyasi mamlakatlardagi innovatsion faoliyatga baho beruvchi indikatorlar hisoblanadi.

2.3. O'zbekistonning GRIga a'zo bo'lishining ahamiyati

O'zbekiston statistik ma'lumotlar taqdim etish bilan bog'liq va Jahon iqtisodiy forumi bilan hamkorlik jihatlar sababli Global raqobatbardoshlik indeksi reytingiga kiritilmagan. Jahon iqtisodiy forumining "Global raqobatbardoshlik indeksi"ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan 2018 yilda Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma'lum bo'ldi.

Birinchi yilda tashkilot tomonidan O'zbekistonda rasmiy so'rovnoma o'tkazish uchun hamkor, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tanlab olinadi va so'rovnoma o'tkaziladi. Ikkinchi yilda so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning indeksdagি norasmiy o'rni belgilanadi hamda ularning O'zbekiston ko'rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko'rildi.

Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Global raqobatbardoshlik indeksi nufuzi jihatdan Jahon banking Biznesni yuritish reytingidan ortda qolsada (01.12.2018 holatiga ko'ra Google qidiruv tizimida Biznesni yuritish reytingi 2 mlrd.dan ortiq, Global raqobatbardoshlik indeksi 38,6 mln natijalarni ko'rsatadi), investorlar qarorlariga ta'sir etuvchi reytinglar qatorida turadi. Shuningdek, ushbu reyting iqtisodiyotning qaysi sohalarida muammolar mavjudligi va mamlakatlarga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish kerakligi bo'yicha yo'nalish berishga xizmat qiladi.

Mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rninni oshirish singari balandparvoz maqsadlar birlamchi vazifa emas, balki ushbu reytinglarni shakllantirishda to'g'ri va ob'ektiv statistik ma'lumotlarni taqdim etish, iqtisodiyotdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini belgilab olish asosiy vazifa bo'lishi kerak. Natijada reytinglardagi ko'rsatkichlarni yaxshilashga intilish orqali mamlakatda biznes, investitsion, institutsional va raqobat muhiti yaxshilanishi, yakunda esa bu mamlakatlarining asosiy maqsadi bo'lgan barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlashga zamin yaratadi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondag'i imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish maqsadida 2020 yil 2 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-sون Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzildi va kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta'minlash, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish;

O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadida davlat hokimiyati

va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish; davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatning o'rniiga ta'siri nuqtai nazaridan kompleks baholab borish.

Ushbu vazifalarning bajarilishi mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi mavqeining oshishiga olib keladi.

Asosiy atamalar va tushunchalar

raqobatbardoshlik, xalqaro reytinglar, Jahon iqtisodiy forumi, global raqobatbardoshlik indeksi, global raqobatbardoshlik indeksini aniqlovchi ko'rsatkichlar.

Qisqacha xulosa

Global tadqiqot va iqtisodiy raqobat bo'yicha mamlakatlar reytingini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida Global raqobatbardoshlik indeksining o'rni va ahamiyati keyingi yillarda mustahkamlanib bormoqda. Mazkur indeksning tarkibiy unsurlari, hisoblash metodologiyasi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'ziga xos bo'lib, yildan-yilga takomillashib kelmoqda. Natijada, mamlakatlarning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini baholashda bugungi kunda asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda.

Global raqobatbardoshlik indeksini hisoblashda ko'rsatkichlar guruhlari va subindekslardan foydalaniib mamlakatlar tasniflanadi va indeks asosida ularning reytingi aniqlanadi. MDH mamlakatlarining Global raqobatbardoshlik indeksining o'rni bugungi kunda nisbatan past bo'lib, ob'ektiv ravishda ushbu mamlakatlarda shakllangan iqtisodiy holat va omillarni aks ettiradi.

O'zbekiston statistik ma'lumotlar taqdim etish bilan bog'liq va Jahon iqtisodiy forumi bilan hamkorlik jihatlar sababli Global raqobatbardoshlik indeksi reytingiga kiritilmagan.

Nazorat uchun savollar

1. Global raqobatbardoshlik indeksi mamlakatlarning qaysi jihatini

baholaydi?

2. Global raqobatbardoshlik indeksini nechta ko'rsatkichlar asosida shakllantiriladi?
3. Global raqobatbardoshlik indeksining subindekslarni sanab bering.
4. Innovatsiyalar va omillar subindeksi va samaradorlikni oshiruvchi ko'rsatkichlar subindeksi mazmuni nimadan iborat?
5. Global raqobatbardoshlik indeksi ko'rsatkichlari asosida mamlakatlar qanday guruhlanadi?
6. MDH mamlakatlarining global raqobatbardoshlik indeksidagi o'rinalarining pastligining asosiy sabablari nimalardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4047-som Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 8 fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4210-soni qarori. <http://www.lex.uz/docs/4215422>
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
4. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.
5. Шваб, Клаус. Технологии Четвертой промышленной революции: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис. – Москва: Эксмо, 2018. – 320 с.
6. The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org
7. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz
8. Бородин К.Г. Теории международной торговли и торговая политика. Российский внешнеэкономический вестник. № 1 (Январь) 2006. С.9-18.

9. Дик А., Гуринов Е. Оценка международной конкурентоспособности стран по методике Всемирного экономического форума. Наука и инновации №11 (128) Ноябрь 2013. С.27-31.

10. Козырь Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.

11. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюллетень Міжнародного Нобелівського економічного форуму. 2012. № 1 (5). Том 2. С.390-398.

12. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография: в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.

13. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.

14. <https://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

21

3-MAVZU. GLOBAL INNOVATSİYALAR INDEKSI (THE GLOBAL INNOVATION INDEX)DA MDH MAMLAKATLARINING ISHTIROKI

3.1. Global innovatsiyalar indeksi (The Global Innovation Index)ning mohiyati va asosiy ko'rsatkichlari

3.2. MDH mamlakatlarining GIIdagi o'rni va uni oshirish imkoniyatlari

3.3. Rossiya Federatsiyasining GIIdagi o'mining o'zgarishi va uning sabablari

3.4. Qozog'istonning GIIdagi o'mining o'zgarishi va uning sabablari

3.5. O'zbekistonning GIIda ishtirokini ta'minlash va uning ahamiyati

3.1. Global innovatsiyalar indeksi (The Global Innovation Index)ning mohiyati va asosiy ko'rsatkichlari

Global innovatsiyalar indeksi 2007 yildan buyon Fransyaning Xalqaro biznes maktabi INSEAD tomonidan hisoblanib boriladi. Keyingi bosqichlarda Global innovatsiyalar indeksini (GII) tashkilotchilari safi kengayib unga AQSHning Kornel universiteti (Cornell University) va qarorgohi Jenevada joylashgan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) olimlari ham qo'shilishgan.

GII ishlab chiqilishidan asosiy maqsad – turli-tuman shakllarda yuzaga keluvchi innovatsiyalarni to'la qonli baholashga qaratilgan yondashuv va indikatorlarni izlab topishdir. Ushbu indeks global miqyosda olib boriladigan tadqiqotlar natijasi bo'lib, uning asosida mamlakatlarda innovatsiya rivojlanishi darajasi bo'yicha reytingi aniqlanadi. GII hisoblash jarayonida 81 ta turli omillar bo'yicha o'zgarishlar hisobga olinadi va mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajalariga baho beriladi.

GII tadqiqotchilari fikriga ko'ra, iqtisodiyotning istiqboli mavjud innovatsion salohiyat va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga bog'liq. Shu sababdan ham GII ikki guruhdan ko'rsatkichlar guruhi asosida hisoblanadi.

1. Mavjud resurslar va innovatsiyalarni amalga oshirish shart-sharoitlari (Innovation Input):

- institutlar;
- inson kapitali va tadqiqotlar;
- infrastruktura;

- ichki bozorning rivojlanishi;

- biznesning rivojlanishi

2. Innovatsiyani amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Output):

- texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi;

- ijodkorlik faoliyati natijalari.

Yakuniy indeks sarf-xarajatlar va samaraning natijasi bo'lib, muay'yan bir mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan hatti-harakatlarning samaradorligiga ob'ektiv bahodir.

3.1-jadval

Global innovatsiyalar indeksi tarkibi⁴

Global innovatsiya indeksi						
Kirish ko'rsatkichlari Innovation Input					CHiqish ko'rsatkichlari Innovation Output	
Institutlar	Inson kapitali va tadqiqotlar	Infrastruktura	Bozorning barqarorligi	Biznesning barqarorligi	Texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi	Ijodkorlik faoliyati natijalari
Siyosiy muhit	Ta'lim	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Kredit	Kasbiy bilimlar	Bidimlar yaratish	Nomoddiy aktivlar
Tartibga soluvchi muhit	Oliy ta'lim	Asosiy infrastruktura	Investitsiyalar	Innovatsion aloqalar	Bilimlarning ta'sir ko'rsatishi	Kreativ tovarsy va xizmatlar
Biznes muhit	Tadqiqot va ishlammalar	Ekologik barqarorlik	Savdo va raqobat	Bilimlarni o'zlashtirish	Bilimlarni tarqalishi	Onlayn kreativlik

GII hisoblash modeli 81 ta birlamchi ko'rsatkichlarni qo'shgan holda natijaga erishini ko'zda tutadi. Ko'rsatkichlar 3 ta kategoriya bo'linadi:

1. Miqdor ko'rsatkichlari – jami 57 ta bo'lib, rasmiy manbalar (BMT, VOIS, JB, PwC, Thomson Reuters va b.)dan olinadi. Turli mamlakatlar iqtisodiyotlari ko'lamini qiyoslash uchun nisbiy ko'rsatkichlar aholi sonidan kelib chiqqan holda, YAIM esa joriy narxlarda yoki xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH dollarida olinidi;

2. Kompozit ko'rsatkichlar – 19 ta. Bularga turli nufuzli tashkilotlar va muassasalar indekslari kiradi: JB, BMT, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi, Yel va Kolumbiya universitetlari;

3. So'rovnoma ma'lumotlari – 5 ta ko'rsatkich. Ushbu tadqiqotlar Butunjahon iqtisodiy forumi sharhlaridan olinadi.

Barcha 81 ta ko'rsatkich 0 dan 100 diapazon oralig'ida olinadi.

⁴ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

GII shakllantirishda qo'llanigan metodologiya va ma'lumotlar mamlakatlarni qiyoslovchi yillik hisobotlarda chop etib boriladi. Hisobotda umumiyligi natijalar bilan birga har bir mamlakat kesimida indeksni shakllantirishda ishtirok etgan ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida natijalar e'lon qilinadi. Ushbu alohida mamlakatlar kesimidagi natijalarga qarab, muayyan mamlakat qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha afzalliklarga ega va qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha orqada borayotganligini ko'rishi mumkin bo'ladi.

3.2-jadval

2015-2020 yillarda Global innovatsiyalar indeksi bo'yicha etakchi 10 ta mamlakatlar ro'yxati⁵

2015	2016	2017	2018	2019	2020
Shveysariya	Shveysariya	Shveysariya	Shveysariya	Shveysariya	Shveysariya
Buyuk Britaniya	Shvetsiya	Shvetsiya	Niderlandiya	Shvetsiya	Shvetsiya
Shvetsiya	Buyuk Britaniya	Niderlandiya	Shvetsiya	AQSH	AQSH
Niderlandiya	AQSH	AQSH	Buyuk Britaniya	Niderlandiya	Buyuk Britaniya
AQSH	Finlyandiya	Buyuk Britaniya	Singapur	Buyuk Britaniya	Niderlandiya
Finlyandiya	Singapur	Daniya	AQSH	Finlyandiya	Daniya
Singapur	Irlandiya	Singapur	Finlyandiya	Daniya	Finlyandiya
Irlandiya	Daniya	Finlyandiya	Daniya	Singapur	Singapur
Lyuksemburg	Niderlandiya	Germaniya	Germaniya	Germaniya	Germaniya
Daniya	Germaniya	Irlandiya	Irlandiya	Isroil	Janubiy Koreya

Global innovatsiyalar indeksi reytingida 2020 yilda 131 mamlakat bo'yicha hisoblangan bo'lib, Shveysariya etakchilik qiladi. Reytingning yuqori pog'onalarini asosan, Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkilotiga (OECD) a'zo davlatlar hisoblanuvchi jahonning sanoati rivojlangan etakchi mamlakatlari egallaydi. Etakchi o'ntalikda Shvetsiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Daniya, Finlyandiya, Singapur keyingi yillarda mustahkam o'rin egallab kelmoqda.

Shveysariya tomonidan innovatsion rivojlanishni tashkil etish bilan bog'liq faoliyat keyingi yillarda muntazam yuqori baholanib kelmoqda. Mamlakatda mavjud innovatsion salohiyat va uni ruyobga chiqarish jarayonlarining sifati Shvetsiya, AQSH, Buyuk Britaniyani ham etakchi guruh mamlakatlari sifatida qayd etish imkonini beradi. Ushbu

⁵ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

mamlakatlarning GII yuqori reytingga ega ekanligi sabablari sifatida birinchi navbatda inson kapitali va tadqiqotlar, shuningdek, biznesning rivojlanish shart-sharoitlarining qulayligini qayd etish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ijodkorlik faoliyati natijalari va texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi ko'rsatkichlari ham an'anaviy tarzda yuqori baholanib kelinadi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Global innovatsiyalar indeksi bu mamlakatlararo qiyosiy yillik reyting bo'lib, muay'yan mamlakatlarda innovatsiya faoliyatini rivojlanish darajasini baholovchi indikatorlar guruhidir.

3.2. MDH mamlakatlarining GIIdagi o'rni va uni oshirish imkoniyatlari

MDH mamlakatlari keyingi yillarda GII muntazam ishtirok etib kelishlariga qaramay nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etishmoqda. Ushbu mamlakatlardagi innovatsion faoliyat va uning rivojlanish darajasi albatta global reytingda o'z aksini topmoqda.

Xususan, 2020 yilda Global innovatsiyalar indeksida MDH mamlakatlari va sobiq ittifoq mamlakatlaridan Estoniya (25-o'rin), Latviya (36), Litva (40), Ukraina (45), Rossiya Federatsiyasi (47) birinchi 50 ta mamlakat orasidan o'rın olgan bo'lsa, Moldova (59), Armaniston (61), Gruziya (63), Belorus (64), Qozog'iston (77), Ozarbayjon (82), O'zbekiston (93), Qirg'iziston (94) va Tojikiston (109) ko'rsatkichlari nisbatan past hisoblanadi.

3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, MDH mamlakatlarining GII reyting darajasi nisbatan past bo'lib, rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha quyi o'rirlarni egallaydilar. MDH mamlakatlari asosan Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy olgan.

Global innovatsiyalar indeksi yuqorida ta'kidlanganidek, a). mavjud resurslar va innovatsiyalarni amalga oshirish shart-sharoitlari (Innovation Input) va b). innovatsiyani amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Output)dan tashkil topgan. Yakuniy indeks reytingi ikkala yo'nalishlarning yig'indisi asosida hisoblanadi. MDH mamlakatlarining ikki yo'nalishlarda egallagan o'rirlari shuni ko'rsatadiki, erishilgan yakuniy natija asosan, nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan birinchi guruh ko'rsatkichlari hisobidan shakllangan. Ikkinci yo'nalish bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar, afsuski ancha past bo'lib, yakuniy ko'rsatkichga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

MDH mamlakatlarining Global innovatsiyalar indeksida tutgan o'rni⁶

	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Rossiya	48	43	45	46	46	47
Moldova	44	46	54	48	58	59
Armaniston	61	-	59	68	64	61
Belorus	53	79	88	86	72	64
Qozog'iston	82	75	78	74	79	77
Ozarbayjon	93	85	82	82	84	82
Tojikiston	11	86	94	101	100	109
Qirg'iziston	109	103	95	94	90	94
O'zbekiston	122	-	-	-	-	93
Turkmaniston	-	-	-	-	-	-

MDH mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasining ko'rsatkichi eng yuqori bo'lib, qiyoslanish amalga oshirilayotgan mamlakatlar orasida 47-o'rinni egallagan. Rossiya Federatsiyasidan oldingi 45 va 46 pog'onalarini mos ravishda Ukraina va Ruminiya egallaganini e'tiborga olgan holda MDH mamlakatlarining global innovatsiya rivojlanishdagi ahvoliga bilvosita baho berish mumkin. MDH mamlakatlari orasida eng past natija qayd etgan Tojikiston (109 o'rinni)ning reytingdagi qo'shnilar Gana (108) va Kambodja (110) bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish darajasi past mamlakatlar qatoriga kiradi.

MDH mamlakatlarining Global innovatsiyalar indeksidagi ishtirokining yana bir salbiy jihatni, egallangan darajaning ijobjiy tomonga nisbatan past sur'atlar bilan o'zgarishidir. Xususan, Rossiya Federatsiyasining global indeksdagi o'rni 2012 yildan 2020 yilga kelib 4 pog'onaga oshgan. Ijobjiy dinamika shuningdek, Armaniston (8 pog'onaga o'sish), Belorus (14), Qozog'iston (6), Ozarbayjon (7), Qirg'iziston (15) va O'zbekistonda (34) qayd etilgan. Aksincha, Moldova 2020 yilga kelib, 2012 yilga nisbatan 9 pog'ona va Tojikiston 1 pog'ona pastga tushgan. Turkmaniston ma'lumotlar taqdim etmaganligi sababli reytingda ishtirok etmagan.

MDH mamlakatlarining GII dagi nisbatan past ko'rsatkichlarining sabablari ushbu mamlakatlarda shakllangan iqtisodiy rivojlanish modellari va tashqi bozorlarda shakllanayotgan shart-sharoitlarga chambarchas bog'liqidir.

⁶https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

Birinchidan, MDH mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish modellarida ma'muriy tartiblarning o'rni va ko'lami yuqori bo'lib, monopol korxonalarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri yuqori va bozor mexanizmlari zaifligicha qolmoqda.

Ikkinchidan, MDH mamlakatlari iqtisodiyotining aksariyati xomashyo eksportiga kuchli bog'liq. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Ozarbayjon, O'zbekiston, Turkmaniston yoqilg'i-energetika kompleksi mahsulotlarini yirik eksport qiluvchi sifatida jahon bozori kon'yunkturasiga bog'liq. Moldova, Armaniston, Qиргизистон va Tojikiston iqtisodiyotining salohiyati past bo'lib, asosan cheklangan eksport imkoniyatlari va past samarali agrar iqtisodiy tarkibga ega.

Innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun mayjud resurslar va innovatsiyalarni amalga oshirish shart-sharoitlari (Innovation Input) bugungi kunda MDH mamlakatlarida nisbatan noqulayligicha qolmoqda. Mamlakatlar hukumatlari tomonidan GII reytingiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion faoliyat doirasida institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infrastruktura, ichki bozor va biznesning rivojlanishi bilan bog'liq o'zgarishlarni jadal joriy etish to'g'risida tushunish bo'lsa-da, ushbu o'zgarishlarni amalda joriy etish nihoyatda sekin kechmoqda.


Shuningdek, MDH mamlakatlarida ilmiy salohiyat va ilmiy-texnik daraja jahon mamlakatlari ichida nihoyatda past baholanadi. Ilmiy va fundamental tadqiqotlarning samaradorligi va amaliyotga qo'llanish darajasi jahoning qator mamlakatlaridan orqada qolmoqda. Jumladan, MDH mamlakatlari olyi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari turli xalqaro reytinglarda juda past o'rirlarni egallaydi yoki ko'rsatkichlarning o'ta pastligi sababli reyting tizimi qayd eta olmaydi.

Ko'rinish turibdiki, dinamik innovatsion rivojlanishni tashkil etish barcha MDH mamlakatlarida tizimli muammolar sababli cheklov larga duch keladi. Natijada, innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijalarini amaliyotga joriy etishda MDH mamlakatlaridan juda katta siyosiy iroda talab qilinadi va innovatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi keskin chora-tadbirlarni qabul qilish talab etiladi.

3.3. Rossiya Federatsiyasining GIIdagi o'rnining o'zgarishi va uning sababları

Rossiya Federatsiyasi MDH mamlakatlari orasida GII reytingida 2020 yilda 47 o'rinni egallab (2019 y.da 46 o'rinni) etakchi mamlakat hisoblanadi. 2012-2020 yillar davomida Rossiya Federatsiyasining GIIdagi

o‘rni nisbatan past darajada bo‘lsa-da, ijobjiy tomonga o‘zgardi. Xususan, 2012 yilda 51 o‘rinni egallagan bo‘lsa, eng yaxshi ko‘rsatkich (43 o‘rin) 2016 yilda qayd etildi.



3.1-rasm. 2012-2020 yillarda Rossiya Federatsiyasining GII reytingi dinamikasi⁷

Rossiya Federatsiyasining GII reytingining alohida unsurlari bo‘yicha egallagan o‘rnini tahlil qilish orqali mamlakat natijasi asosan qaysi omillar hisobidan shakllanganligini ko‘rish mumkin.

3.4-jadval

2019 va 2020 yillarda Rossiya Federatsiyasining Global innovatsiyalar indeksining unsurlari bo‘yicha egallagan o‘rnining o‘zgarishi⁸

Global innovatsiyalar indeksi unsurlari	2019	2020
inson kapitali va tadqiqotlar	23	30
biznesning rivojlanishi	35	42
GII	46	47
texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi	47	50
ichki bozorning rivojlanishi	61	55
ijodkorlik faoliyati natijalari	62	60
infrastruktura	72	60
institutlar	74	71

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020 yilda Rossiya Federatsiyasining GII reytingida egallagan o‘rni 2019 yilga nisbatan bir pog‘onaga pasaygan va deyarli sezilarli o‘zgarmagan. Shuning bilan birga, ayrim yo‘nalishlarda yaxshi natijalar evaziga umumiyligi reyting

⁷ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

⁸ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

yaxshilangan bo'lsa, qolgan yo'nalishlarda esa ko'rsatkichlarning yuqori ulushi hisobiga yakuniy natija salbiy tomonga qarab o'zgargan. Xususan, 2020 yil natijalariga e'tibor bersak, ikki yo'nalishda, jumladan, inson kapitali va tadqiqotlar (30 o'rinn) va biznesni rivojlanish darajalari (42 o'rinn) ko'rsatkichlari bo'yicha Rossiya Federatsiyasining reyting ko'rsatkichlari yuqori baholanib yakuniy natijani yaxshilashga xizmat qilgan. Texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi kategoriyasi bo'yicha 2020 yilda qayd etilgan 50 o'rinn sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmagan yoki ta'siri neytral bo'lgan bo'lsa, ichki bozorning rivojlanishi bo'yicha 55 o'rinn, ijodkorlik faoliyati natijalari bo'yicha 60 o'rinn, infrastruktura bo'yicha 60 o'rinn va institutlar bo'yicha 70 o'rinni qayd etib yakuniy ko'rsatkichini pasayishiga olib kelgan.

O'z navbatida maksimal ijobiy ta'sir ko'rsatgan inson kapitali va tadqiqotlar yo'nalishini tahlil qiladigan bo'lsak, keyingi yillarda Rossiya Federatsiyasida oliv ta'lim tizimida quyidagi ijobiy ko'rsatkichlarga erishildi: tabiiy va injenerlik yo'nalishlari bitiruvchilari soni oshdi; oliv ta'lim qamrovi kengaydi; xalqaro tan olingan QS reytingida Rossiya universitetlarining pozitsiyalari yaxshilandi; o'rta ta'limda o'quvchilar va o'qituvchilar sonining nisbati yaxshilandi.

Biznesning barqarorligi ko'rsatkichi ham o'z navbatida kasbiy bilim va ko'nikmalar, innovatsion aloqalar, yangi bilimlarni o'zlashtirish tizimlarni jadal rivojlanib borishi ortidan ijobiy baho olgan. Xuddi shuningdek, texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi ko'rsatkichlari tizimi ham Rossiya Federatsiyasida keyingi yillarda bilimlar yaratish, bilimlarning ta'sir ko'rsatishi, bilimlarni tarqalishi kabi jarayonlarda erishilgan ijobiy jarayonlar ta'sirida nisbatan yuqori baholandi.

Biroq, bozorning barqarorligi ko'rsatkichlari (kredit, investitsiyalar, savdo va raqobat), ijodkorlik faoliyati natijalari (nomoddiy aktivlar, kreativ tovarlar, xizmatlar va onlayn chiqishlar), infrastruktura, institutlar (siyosiy muhit, tartibga soluvchi muhit, biznes muhiti) ko'rsatkichlari bo'yicha Rossiya Federatsiyasida shakllangan holat natijasida past baholanib mamlakatning umumiy natijasini pasayishiga olib keldi. Amalda mamlakat ko'rsatkichi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni liberallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'plab qabul etilayotganligi yaqin va o'rta istiqbolda Rossiya Federatsiyasining GII reytingini sezilarli yaxshilanishini ta'minlaydi.

3.4. Qozog‘istonning GIIdag‘i o‘rnining o‘zgarishi va uning sabablari

Global innovatsiyalar indeksida Qozog‘iston 2020 yilda 77-o‘rinni egalladi. Bu MDH mamlakatlari orasida Rossiya, Moldova, Armaniston va Belorusdan keyin beshinchı ko‘rsatkich hisoblanadi. Qozog‘iston GII reytingidagi eng yaxshi ko‘rsatkich – 74 o‘rinni 2018 yilda qayd etgan. Umuman olganda, jahon GII reytingida 77 o‘rin ancha past ko‘rsatkich bo‘lib, mamlakatning xomashyo eksportyori maqomidan dalolat beradi. 2012-2020 yillar davomida Qozog‘istonning GII reytingdagi o‘rni juda sust o‘zgarib bor-yo‘g‘i 7 pog‘onaga yaxshilandi.

Qozog‘iston Respublikasi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan GII o‘zining reytingini 2 pog‘onaga yaxshilashga muvaffaq bo‘lgan. Jadval ma‘lumotlari ko‘rsatadiki, institutlar sifati ko‘rsatkichi bo‘yicha reytingda 49 o‘rin qayd etilgan va bu natija o‘z navbatida umumiy reytingni ijobiy tomonga o‘zgarishini ta’minlagan. Shuningdek, ichki bozorning rivojlanishi ko‘rsatkichi bo‘yicha ham muvaffaqiyatli ko‘rsatkichi qayd etilgan. Xususan, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakat 2019 yilda 69 o‘rinni qayd etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 16 pog‘onaga yaxshilangan va 53 o‘rin qayd etilgan.

3.5-jadval

2019 va 2020 yillarda Qozog‘istonning Global innovatsiyalar indeksining unsurlari bo‘yicha egallagan o‘rnining o‘zgarishi⁹

Global innovatsiyalar indeksi unsurlari	2019	2020
institutlar	49	49
ichki bozorning rivojlanishi	69	53
infrastrukturna	67	66
inson kapitali va tadqiqotlar	67	68
biznesning rivojlanishi	78	71
GII	79	77
texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi	81	80
ijodkorlik faoliyatni natijalari	102	105

Infrastruktura (2020 yilda 66 o‘rin), inson kapitali va tadqiqotlar (68), biznesni rivojlanishi (71) ko‘rsatkichlari bo‘yicha erishilgan reyting umumiy natijani yaxshilashga ijobiy hissa qo‘shgan. Shuningdek, texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi (80) ko‘rsatkichi

⁹ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

bo'yicha erishilgan reyting umumiy natijaga nisbatan neytral xarakterda bo'lgan. Biroq, ijodkorlik faoliyati natijalari ko'rsatkichi 2019 yilda 102 o'rindan 2020 yilda 3 pog'onaga pasaygan va 105 o'rin bilan yakuniy natijaga sezilarli ravishda salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qozog'istonning GII reyting ko'rsatkichi asosan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi omillarning (kirish ko'rsatkichlari-Innovation Input) qulayligi asosida shakllangan. Xususan, institutlar ko'rsatkichi bo'yicha: siyosiy muhit, tartibga soluvchi muhit va biznes muhitlarning sifati va bozor barqarorligi ko'rsatkichi bo'yicha tadbirkorlar uchun kredit, investitsiyalar, savdo va raqobat omillarining sifatining yuqoriligi bilan ijobjiy baholanadi.

Biroq, o'zida natijadorlikni aks ettiruvchi (chiqish ko'rsatkichlari-Innovation Output) ko'rsatkichlar hisoblanmish texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi, ijodkorlik faoliyati natijalari yo'naliishlaridagi birlamchi shart-sharoitlarning yaxshi emasligi va sifatining pastligi sababli ushbu yo'naliishlarda past natija qayd etilib umumiy mamlakat natijasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan.

Istiqbolda Qozog'iston Respublikasining GIIda reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash, yuqori o'rirlarni egallash uchun birinchi navbatda innovatsion faoliyatning natijalarini ishlab chiqarish va jamiyat hayotiga jadal tadbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat tashkilotlari va tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanishni rag'batlantirishga e'tiborni qaratishi lozim. Shuningdek, o'zida innovatsion sarf-xarajatlarni aks ettirgan kirish ko'rsatkichlari yo'naliishida ham olib borilayotgan ijobjiy o'zgarishlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

3.5. O'zbekistonning GIIda ishtirokini ta'minlash va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining GII reytingidagi ishtirokini bir tekis deb bo'lmaydi. Mamlakat 2016-2019 yillarda reyting tahlillariga turli sabablarga ko'ra ishtirok etmadidi. Faqtgina 2020 yilga kelib reytingda ishtirok etish qayta tiklandi va shu yilning o'zida umumiy mamlakat ko'rsatkichi 93-o'rinni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich MDH mamlakatları orasida past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bundan ham yomon ko'rsatkich Qирг'изистон (94 o'rinn) va Тоҷикистонда (109) qayd etilgan. Albatta bunday baho mamlakatda innovatsiya jarayonlarining ahvoli va innovatsion rivojlanish imkoniyati va istiqbollari darajalarini ko'rsatadi.

GII reytingi xalqaro qiyosiy tadqiqtolar va tahlillar bo'lib, uning natijalari muay'yan mamlakatlarda innovatsiyalarning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va uning natijalaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari baholanadi. Mazkur xalqaro reytingda jahoning 150 ga yaqin mamlakatlari ishtirok etishadi va yillik natijalar e'lon qilib boriladi. Shuningdek, yakuniy natijalar bilan birga ushbu reytingga ta'sir ko'rsatgan omillar tarkibi va ta'sir darajalari ham e'lon qilib boriladi. Natijada, e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar innovatsiya sohasida mamlakatlar va hukumatlar tomonidan islohotlarning yo'nalishlarini tanlash, modernizatsiyalash va takomillashtirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning xalqaro reytinglarda, shu jumladan, global innovatsiya indeksida ishtirok etishini ta'minlash va o'rnnini yanada mustahkamlash maqsadida 2019 yilning 25 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining Innovatsion ishlammalarni tatbiq etishning ilmiy-amaliy markazi qaror bilan Global innovatsiyalar indeksi (The Global Innovation Index)ni yurituvchi xalqaro tashkilotlar bilan ishslash uchun ma'sul etib tayinlandi.

Respublikadagi tadqiqt institutlari va shu jumladan mazkur markazga quyidagi vazifalar biriktirildi:

- "xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko'rsatkichlariga sabab bo'layotgan asosiy omillarni aniqlash;

- o'zini o'zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

- loyihibar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnni yuksaltirishga to'sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko'ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasining tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to'g'risidagi axborotlarni, shuningdek, baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar ma'lumot bazasini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o'rnni yaxshilashga to'sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning

tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari va ilmiy muassasalarining ekspertlari bilan hamkorlik o'rnatish va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish;

- tegishli tarmoqlardagi muammolarni aniqlash va ahvolni o'rganish uchun ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, shuningdek, mamlakatda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish doirasida turli sohalarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar to'g'risida jamoatchilik va xalqaro reyting agentliklarini xabardor qilish"¹⁰.

Quyida O'zbekistonning Global innovatsiyalar indeksidagi ishtirokini tahlil qilsak. Tahlil 2020 yildagi GII hisoboti ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

3.6-jadval

O'zbekistonning 2020 yilda Global innovatsiyalar indeksining unsurlari bo'yicha egallagan o'rni¹¹

Global innovatsiya indeksi unsurlari	2020 y.
ichki bozorning rivojlanishi	27
infrastruktura	72
inson kapitali va tadqiqotlar	77
texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi	90
GII	93
Institutlar	95
biznesning rivojlanishi	127
ijodkorlik faoliyati natijalari	127

2020 yilda GII mamlakat ko'rsatkichi 93-o'rinda qayd etildi. Unsurlar kesimida ichki bozor rivojlanish ko'rsatkichlari eng yuqori (27-o'rin) baholangan, infrastruktura va inson kapitali va tadqiqotlar ko'rsatkichi o'rtacha mamlakat ko'rsatkichidan nisbatan yaxshiroq qayd etilgan bo'lsa, texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi (90), institutlar (95) ko'rsatkichlari o'rtacha mamlakat ko'rsatkichiga yaqin bo'lib neytral xarakterda bo'ldi. Biroq, biznesning rivojlanishi (127-o'rin) va ijodkorlik faoliyati natijalari (127-o'rin) ko'rsatkichlari bo'yicha o'ta past natija qayd etilgan va mamlakatning yakuniy ko'rsatkichini pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Haqiqatdan ham, mamlakatda

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентиринг 2019 йил 25 февралдаги "Ўзбекистон Республикасининг халқaro рейтинглар ва индекслардаги ўринни яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-4210-сонли карори. /http://www.lex.uz/docs/4215422

¹¹ https://www.globalinnovationindex.org/userfiles/file/reportpdf/GII_2020_KeyFindings_RU_web.pdf

tadbirkorlik va innovatsiyalar uchun shart-sharoitlar va qulayliklar muntaзам yaratib borilayotganligiga qaramay O'zbekistonning 2020 yildagi GII reytingi 93 o'rinda qayd etilishi o'ta ayanchli holdir.

Xalqaro reyting agentliklari indekslarni hisoblab chiqishda yoki reytinglarni tuzishda, asosan, mamlakatning turli statistik ko'rsatkichlariaga tayanadi. Tan olish lozim, pandemiya sababli statistik ko'rsatkichlarning yaxshi tomonga o'zgarishiga nisbatan ularning yomonlashish ehtimoli yuqoriroq.

Shu sababli keyingi yillarda xalqaro reyting va indekslardagi o'mimizning joriy holatida saqlab qolinishi yoki pastlashishi ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Biroq unutmaslik kerakki, pandemiya bitta yoki bir nechta davlatda emas, balki butun dunyo mamlakatlariga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Shu bois, balki boshqa davatlarning ham reytinglardagi o'mi pastlashishi sabab mamlakatimizning o'mi tom ma'noda ko'tarilishi yoki joriy holatda saqlanib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

Asosiy atamalar va tushunchalar

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, global innovatsiyalar indeksi, kirish ko'rsatkichlari, chiqish ko'rsatkichlari, inson kapitali va tadqiqotlar, infrastruktura va institutlar.

Qisqacha xulosa

Global innovatsiyalar indeksi jahon mamlakatlarining innovatsiyalar sohasida olib borayotgan faoliyatini samarali baholovchi asosiy kompozit ko'rsatkich hisoblanadi. Global innovatsiyalar indeksi mavjud resurslar va innovatsiyalarni amalga oshirish shart-sharoitlari (Innovation Input) hisoblanuvchi institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infrastruktura, ichki bozorning rivojlanishi va biznesning rivojlanishi omillarini o'z ichiga oladi. Innovatsiyani amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalar (Innovation Output) texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishi bilan birga ijodkorlik faoliyati natijalarini o'zida jamlaydi. Sodda qilib aytganda global innovatsiyalar indeksi innovatsion faoliyatga qilingan sarf-xarajatlarni va u orqali olingen va erishilgan natijani o'zida aks ettiradi.

Shveysariya, Shvetsiya, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlar bugungi kunda innovatsiyalarga sarf-xarajatlar va

ularning natijasidan foydalanish borasida erishgan ko'rsatkichlariga ko'ra global innovatsiyalar indeksida muntazam yuqori o'rirlarni egallab kelmoqda. Biroq, MDH mamlakatlari va Shuningdek, O'zbekistonning GII o'rni bugungi kunda past bo'lib, innovatsion faoliyatni tashkil etish va natijalardan foydalanish borasidagi holatning ob'ektiv baholaydi. MDH va O'zbekistonda ayniqsa, innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanish ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Mintaqalarning GII o'rmini yaxshilash, salohiyatlarini oshirib borish uchun innovatsion faoliyatni davlat va xususiy kapital tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada faollashtirish, faoliyat natijalarini tijoratlashga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Global innovatsiyalar indeksi qaysi yildan va qanday tashkilotlar tomonidan hisoblanib kelinadi?
2. GII hisoblash jarayonida nechta omillar bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi?
3. Kirish ko'rsatkichlari (Innovation Input) unsurlari tarkibini ayting.
4. Chiqish ko'rsatkichlari (Innovation Output) unsurlari tarkibini ayting.
5. Global innovatsiyalar indeksi ko'rsatkichlari nechta kategoriya bo'linadi?
6. Keyingi besh yilda GIIda etakchi o'ntalikka kirgan mamlakatlarni sanab bering?
7. 2020 yilda Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va O'zbekistonning GIIda egallagan o'rirlarini va unga ta'sir ko'rsatgan omillarni aytib bering.
8. MDH mamlakatlarning GII dagi nisbatan past ko'rsatkichlarining sabablari nimadan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4047-son Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 8 fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rmini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4210-sonli qarori.
<http://www.lex.uz/docs/4215422>

3. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz

4. Козыръ Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.

5. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюллетень Міжнародного Нобелівського економічного форуму. 2012. № 1 (5). Том 2. С.390-398.

6. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография: в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.

7. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.

8. <https://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

— 216 с.

4-MAVZU. BIZNES YURITISH (DOING BUSINESS) REYTINGI VA UNING MDH MAMLAKATLARIDA BIZNES MUHITIGA BAHO BERISHDAGI ROLI

- 4.1. Biznes yuritish (Doing business) reytingi va uning asosiy ko'rsatkichlari
- 4.2. Doing business mamlakatda tadbirkorlik rivojlanishiga baho berishning muhim mezonи
- 4.3. MDH mamlakatlarining Biznes yuritish reytingidagi o'mining o'zgarish xususiyatlari
- 4.4. Biznes yuritish reytingi va investitsiyalar oqimi o'rtaсидаги bog'liqlik
- 4.5. O'zbekistonning biznes yuritish reytingidagi o'rni va uni oshirish yo'llari

4.1. Biznes yuritish (Doing business) reytingi va uning asosiy ko'rsatkichlari

Biznes yuritish loyihasiga Jahon banki tomonidan 2002 yilda asos solingen bo'lib, jahonning 190 ta iqtisodiyotlarda biznes yuritishni tartibga solish me'yorlarini baholashga qaratilgandir. Mazkur loyiha kichik va o'rta miqyosdagi korxonalar faoliyatini tadqiq etadi va ularga nisbatan qo'llanilayotgan tartibga solish me'yorlarini baholaydi.

"Doing Business"ning (DB) birinchi ma'ruzasi 2003 yilda nashr etilib 133 mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha 5 ta indikatorni o'z ichiga olgan edi. DBning 2014 yilgi ma'ruzasi 189 ta mamlakatni qamragan holda 10 ta indikatorni o'z ichiga olgan edi. DBning 2017 yilgi ma'ruzasida Somalining kiritilishi natijasida mamlakatlar soni 190 ga etdi.

Ma'ruzada keltirilgan miqdor ko'rsatkichlari va ma'lumotlar turli iqtisodiyotlarda biznesni yuritish sharoitlarini va ma'lum muddat davomida ularni o'zgarib borishini taqqoslash imkonini beradi. Ushbu ma'ruza biznesni tartibga solish samaradorligi bo'yicha mamlakatlar o'rtaida raqobatni kuchaytirishga va ushbu yo'nalishda tegishli islohotlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar beradi. "Doing Business" loyihasi doirasida shuningdek, alohida mamlakatlar darajasida turli shahar va mintaqalarda biznesni tartibga solish va islohotlar borishini o'rganilgan submilliy ma'ruzalar ham chop etib boriladi.

"Doing Business" indeksini hisoblash metodikasi ilmiy konsultantlar tomonidan so'rovnomalar ishlab chiqish va o'tkazish asosida amalga

oshiriladi. So'rovnoma mahalliy ekspertlar (xizmatchilar, hisobchilar, yuristlar, ekspeditorlar va b.) ham jalb qilinadi.

4.1-jadval

"Doing Business" indeksini hisoblash ko'rsatkichlari

"Doing Business" ma'rurasiga kiritilgan indikatorlar	Parametrlari	Mazmuni
Korxona tashkil etish	Tadbirlar soni. Tadbirlar qiymati. Muddati, kun. Ustav kapitalining minimal hajmi	Namunaviy korxona misolida baho beriladi. Korxona ochmoqchi bo'lgan tadbirdorning sarflangan muddat va pul va ustav kapitalining minimal hajmi hisobga olinadi.
Qurilish ruxsatnomasi olish uchun	Tadbirlar soni. Muddat, kun. Narxi.	1300 kv.m. maydonga ega omborxona qurish uchun qurilish korxonasi o'tishi lozim bo'lgan tadbirdilar soni hisobga olinadi. Ruxsat olish uchun muddat kunlarda va qurilish uchun sarflangan xarajatlarni jamlanadi.
Elektr ularish ta'minotiga	Tadbirlar soni. Muddat, kun. Narxi.	Standart omborxonani mutazam elektr ta'minotiga ulash uchun lozim bo'lgan tadbirdilar soni, muddat va xarajatlarni baholanadi
Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	Tadbirlar soni. Muddat, kun. Narxi.	Mulk va mulk huquqini sotuvchidan xaridorga o'tishida mavjud tadbirdilar ketma-ketligi baholanadi.
Kredit olish	Qonuniy huquqlar. Qonuniy huquqlarning ta'sirchanlik indeksi. Kredit axboroti indeksi. Kredit ma'lumotlari byurosining qamrovi. Davlat kredit reestri qamrovi	Ikki guruh ko'rsatkichlari baholanadi. Birinchi guruh amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha qarz oluvchi va va kreditorlarning qonuniy huquqlarini baholaydi va qonunlik doirasida qarz berishni engillashtiruvchi imkoniyatlarni (garov, bankrotlik) o'chaydi; ikkinchi guruh kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni bilan almashinuvni o'rganadi va kredit byurosi va kredit reestri orgalgi kredit ma'lumotlarini olish imkoniyatlarni, hajmini va qamrovini baholaydi.
Minoritar investorlarni himoyalash	Manfaatlar to'qnashivi. Aksionerlik boshqaruvি	Ikki guruh ko'rsatkichlari yordamida korporativ boshqaruvdagi investorlar huquqi va shuningdek, korporatsiya direktori direktorlari tomonidan aktivlardan noqonuniy asosda shaxsiy foyda olish uchun foydalish holatlardira minoritar aksionerlarni himoyalash darajasi baholanadi.
Soliqqa tortish	Bir yilda hisobot tayyorlashgaketedigan vaqt, soat. Soliq to'lovlar. Soliq stavkalar	O'rta hajmdagi namunaviy korxona bir yilda to'lashi lozim bo'lgan soliq va majburiy ajratmalar tahlil qilinadi. Soliq stavkalariga foydalaning ulushi sifatida baho beriladi.
Xalqaro savdo	Hujjatlar soni. Muddati, kun. Narxi	Sharli tovar va kompaniya misolida standartlashgan tovarni dengiz transporti orqali eksport qilishda sarflangan vaqt va mablag'lar baholanadi
Kontraktlar ijrosining ta'minlanishi	Tadbirlar soni. Muddat, kun. Narxi.Sud xarajatlari hajmi	Sud tizimining samaradorligi mahalliy sud tomonidan tijorat kelishmovchiligini bartaraf etishda batasil nazorat qila olishi asosida baholanadi.
To'lov qobiliyatini yo'qotish (bankrotlik tadbir)	Vaqt (yil). Mablag'. Qarzni qaytarish koefitsienti	Bankrotlik tadbirini o'tkazishga majbur bo'lgan korxona harakatlarining tartibi baholanadi (muddatlar, qiymati, kredit mablag'larini qaytarish darajasi)

Odatda anketalar asosida tashkil etilgan so‘rovnomalarda 30 minggacha ekspertlar ishtirok etishi mumkin.

So‘rovnoma to‘plangan ma’lumotlar o‘z navbatida 10 indikatorni hisoblash uchun jalb qilinadi. Quyida asosiy indikatorlar keltirilgan.

Mamlakatlarning indikatorlaridagi ko‘rsatkichlar asosida har bir mamlakatning biznes yuritishni qulaylik reytingi hisoblanadi. Reyting “Doing Business” 2020 ma’ruzasiga kiritilgan mamlakatlar soniga mos ravishda 190 ta pozitsiyaga ega. Mamlakatning reytingdagi o‘rni qancha yuqori bo‘lsa, shu mamlakatda tadbirkorlik muhiti qulay va korxonalarini ochish va yuritish sharoitlari oson hisoblanadi.

4.2. Doing business mamlakatda tadbirkorlik rivojlanishiga baho berishning muhim mezoni

Biznes yuritish (Doing business) reytingi 2002 yildan buyon Juhon banki tomonidan yuritib kelar ekan, bugunga kelib, mazkur reytingning ahamiyati global miqyosda yuqori hisoblanadi. Buning bir qancha sabablari va jihatlari mavjud.

Birinchidan, Doing business reytingining yuqori pog‘onalardan joy olishning mamlakatlar uchun nufuzi baland bo‘lib, bunday sharafga ega bo‘lgan mamlakatning xorijiy investorlar nazarida jozibadorligi oshishiga qat‘iy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, mamlakatlar o‘z xorijiy investorlar uchun ijobjiy imidjlarini shakllantirish yo‘lida juda katta moliyaviy mablag‘ va tashkiliy-iqtisodiy xarajatlarni sarflaydilar. Ko‘p hollarda mazkur xarajatlarning samaradorligi boshqa omillar ta’sirida o‘ta past bo‘lishi yoki kutilmagan natijalarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Biznes yuritish (Doing business) reytingidagi yuqori o‘rin esa, investorlar uchun har qanday targ‘ibot va chorlovlardan afzal bo‘lib, qisqa muddatlarda ulkan moliyaviy resurslarni jalb etish, yirik moliyaviy mablag‘larni talab etuvchi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, Doing business reytingidan egallangan yuqori o‘rin amalda ushbu mamlakatda yaratilgan qulay biznes muhit natijasi bo‘lib, ichki bozorda raqobat muhitini yaxshilab milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, YAIM, korxona va aholi daromadlarini oshishiga, keng aholi qatlamlarining turmush darajasini yaxshilanishiga, yirik infrastruktura loyihalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, Doing business reytingi muay‘yan mamlakatda nafaqat qulay iqtisodiy huquq va sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi, balki

ushbu mamlakatda siyosiy institutlarning barqarorligi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari mustahkam himoyalanyotganligi va barqaror sud tizimi shakllanganligini ko'rsatadi. Mutaxassislarning bildirgan fikrlariga ko'ra, Doing business reytingida yuqori o'ringa ko'tarilgan yoki quyi o'rnlardan jadal yuqorilab borayotgan davlatlarning nafaqat demokratiyaning yuqori darajasiga yaqinlashib borayotganligini, balki, jamiyat hayotining turli jabhalarida ham jadal ijobjiy o'zgarishlar kechayotganligidan dalolat beradi.

Doing business reytingi tomonidan qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar o'zining soddaligi va ommaviy tusdaligi bilan amalda tadbirkorlikning rivojlanishini qulay baholash imkonini beradi.

Xususan, Doing business ko'rsatkichlarining mantiq va ketma-ketligiga e'tibor qaratilsa, aynan tadbirkorlikka kirib kelayotgan shaxs uchun uchraydigan va ushbu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan shart-sharoitlar va tartib-qoidalardan iborat. Jumladan, yangi tadbirkor uchun korxonani ro'yxatdan o'tkazish shart-sharoitlari; yangi korxona uchun bino va inshootlarni barpo etish imkoniyatlari; korxonaning yangi qurilgan binosini elektr ta'minotiga ulash istiqbollari; korxona uchun mulk sotib olish va mulknii sotish imkoniyatlarining qulayligi; moliyaviy imkoniyatlari cheklangan yangi korxona uchun kredit resurslarini jaib etish mexanizmlarini soddaligi; korxona aksionerlarining himoyalanganligi; soliqqa tortish tiziminingadolatli va soddaligi; xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati ta'minlanganligi; tadbirkorlik sub'ektlari o'rasisidagi iqtisodiy munosabatlar va muammolarning kafolatlangan zamonaviy echimlari ko'zda tutilganligi va boshqalar.

4.3. MDH mamlakatlarining Biznes yuritish reytingidagi o'rning o'zgarish xususiyatlari

MDH mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda islohotlar va tarmoqlarning modernizatsiyalash jarayonlarini boshlaridan kechirmoqdalar desak xato bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, MDH mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ushbu mamlakatlarda turli darajada iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammmolar, inqirozli holatlar kuzatilayotganligini ko'rsatadi. Xususan, energetika va xomashyo resurslarini eksport qiluvchi Rossiya Federasiysi, Qozog'iston, Ozarbayjon va O'zbekiston jahon bozorlaridagi noqulay va nobarqaror konyunkturadan, ichki bozorlarda esa yuqori inflyasiya, moliyaviy manbalarning cheklanganligidan murakkab vaziyatlarni

boshlaridan kechirishmoqda. Iqtisodiy muammolar bilan birga ayrim mamlakatlarda siyosiy va ijtimoiy muammolarning kuchayib borishi kuzatilmogda. Energetika resurslari eksportiga ixtisoslashmagan MDHning boshqa davlatlarida ham iqtisodiy va ijtimoiy muammolar o'z echimini kutib turibdi. Biroq, etarli ichki moliyaviy mablag'lar sharoitida tashqi bozorlardan moliya mablag'larini jalb etish o'zining afzalliklariga ega. Shu sababdan ham, MDH mamlakatlari keyingi yillarda tashqi bozorlarda va xalqaro arenada mamlakat imidjini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarini jalb etish bo'yicha faol hatti-harakatlarni olib borishmoqdalar.

4.2-jadval

2015-2020 yillarda MDH mamlakatlarining Doing business reytingidagi o'rni¹²

	2015		2017		2018		2019		2020	
	Reyting o'mi	Ball								
Qozog'iston	77	64.59	35	75.09	36	75.44	28	77.89	25	79.6
Rossiya Federatsiyasi	62	66.66	40	73.19	35	75.50	31	77.37	28	78.2
Ozbarbayjon	80	64.08	65	67.99	57	70.19	25	78.64	34	76.7
Armaniston	45	70.60	38	73.63	47	72.51	41	75.37	47	74.5
Moldova	63	66.60	44	72.75	44	73.00	47	73.54	48	74.4
Belorus	57	68.26	37	74.13	38	75.06	37	75.77	49	74.3
O'zbekiston	141	54.26	87	63.03	74	66.33	76	67.40	69	69.9
Qirg'iziston	102	60.74	75	65.17	77	65.70	70	68.33	80	67.8
Tojikiston	166	48.57	128	55.34	123	56.86	126	57.11	106	61.3

MDH mamlakatlari Doing business indeksida har yili to'liq (Turkmanistondan tashqari) ishtirok etib kelishadi. 2015-2020 yillar davomida MDH mamlakatlarining Doing business reytingida egallagan o'rirlari ijobiy dinamika namoyon qiladi. Xususan, 2015 yilda MDH mamlakatlaridan faqat bitta davlat – Armaniston birinchi 50 ta mamlakatlar qatoriga kirgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bunday mamlakatlar soni 5 taga etdi: Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Moldova va Belorus. 2019 yildan Ozbarbayjon ham yuqorida qayd etilgan MDH mamlakatlari singari yuqori o'rinni egalladi. Bugungi kunda uchta MDH davlatlari, jumladan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonlar birinchi 50 ta mamlakatlar qatoridan joy ola olishmadi.

MDHning Doing business reytingining birinchi 50 ta mamlakatlari orasidan o'rinni egallagan quyidagi mamlakatlari: Qozog'iston, Rossiya

¹² <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>

Federatsiyasi, Armaniston, Moldova va Belorus va Ozarbayjonning Doing business reytingidagi ishtirokini haqiqatdan ham yuqori baholash lozim. Xususan, Qozog'iston o'rni 2020 yilda 2015 yilga nisbatan 52 pog'onaga yaxshilangan. Ozarbayjon o'rni 46, Rossiya Federatsiyasi 34, Moldova 15, Belorus o'rni 8 pog'onaga yaxshilangan bo'lsa, xuddi shu davrda Armaniston o'rni 2 pog'onaga pasaygan.

Doing business 2020 reytingi natijalari asosida bugungi kunda tabirkorlik faoliyatini boshlash yoki olib borish uchun eng qulay shart-sharoitlar va imkoniyalar MDH mamlakatlardan Qozog'iston (25 o'rin) va Rossiya Federatsiyasi (28 o'rin) va Ozarbayjon (34 o'rin)da shakllanganligini bilishimiz mumkin.

Armaniston (47 o'rin), Moldova (48 o'rin) va Belorus (48 o'rin)da ham biznes yuritish uchun nisbatan mu'tadil shart-sharoitlar mavjud. Biroq, O'zbekiston (69 o'rin), Qirg'iziston (80 o'rin) va Tojikiston (106 o'rin)da indeks ko'rsatkichlaridan kelib chiqib biznesni yuritishda ma'lum qiyinchilik va murakkabliklar mavjudligini ta'kidlash mumkin.

MDH mamlakatlarining 2015-2020 yillardagi Doing business reytingida egallagan o'rinalarining yaxshilanishi kabi ijobjiy o'zgarishlar albatta mazkur mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlar natijasidir.

Birinchidan, MDH mamlakatlari biznesni ro'yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida ko'plab majburiy talablarni bekor qilgan hola "yagona darcha" xizmatlari orqali qat'iy belgilangan qisqa muddatlarda amalga oshirishni yo'lga qo'ydilar.

Ikkinchidan, biznes uchun (nafaqat biznes uchun) retrospektivada qonunchilikda ko'zda tutilgan tartib va to'lovlarning aksariyati bekor qilinib ro'yxatga olish amaliyoti o'miga soddalashtirishgan qayd amaliyoti yo'lga qo'yildi. Kam sonli saqlanib qoligan to'lovlar darajasi keskin pasaytirildi.

Uchinchidan, MDH mamlakatlarida xorij mamlakatlari tajribasiga tayanib qonunchilik amaliyotlari takomillashtirildi, tadbirkorlik kafolatları, mulkiy huquqlarni himoyalash, garov ta'minoti, biznesda o'zaro kelishmovchiliklarni tartibga solish, bankrotlik yo'nalishlarida yangi qonunchilik normalari kiritildi.

To'rtinchidan, soliqqa tortish amaliyotida ham ijobjiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, amaldagi soliqlar soni qisqartirildi, soliq stavkalari qayta ko'rib chiqilib nisbatan pasaytirildi va optimallashtirildi, biznes uchun soliq yuki sezilarli kamaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan qonunchilik va amaliyotdagi o'zgarishlar Doing business indikatorlarida o'z aksini topib MDH mamlakatlarining xalqaro reytingdagi o'rnlarni yaxshilanishiga olib keldi.

Biroq MDH mamlakatlari amaliyotida hali hanuzgacha ma'lum darajadagi cheklovlarining saqlab qoliganligi Doing business xalqaro reytingida etakchi o'rnlarni egallash imkoniyatini bermayapti. Ayniqsa bank sohasi, tadbirdorlik bilan bog'liq qonunchilik, ularni huquqlarini himoya qilish, mulkiy munosabatlarda ayrim darajada muammolar saqlanib kelinmoqda. O'yamizki, MDH mamlakatlari hukumatlari bu borada mayjud muammolarni yaxshi biladi, yaqin va o'rta istiqbolda qayd etilgan masalalar ijobjiy hal etiladi va o'z navbatida MDH mamlakatlarining Doing business xalqaro reytingdagi o'mi yanada mustahkamlanadi.

2020 yil Doing business ma'rzasida reyting ko'rsatkichi sezilarli ravishda ijobjiy tomongan o'zgargan ayrim mamlakatlar hatti-harakatlari alohida qayd etilgan va qaysi omillar evaziga erishilgani ta'kidlangan. Barcha MDH mamlakatlari bo'yicha ijobjiy o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan indikatorlar va sohalar qayd etilgan. Quyida Doing business 2020da keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz.

Armaniston. Qurilishga ruxsatnomalar olish masalasida: Armaniston arxitektor va injenerlarga nisbatan qat'iy talablarni qo'yish orqali qurilish sifatini nazorat qilishni kuchaytirdi.

Minoritar investorlarni himoya qilish: Armaniston tomonlar bilan bog'liq bitimlarni mustaqil ko'rib chiqish va ma'lumotlarni tezkor oshkor qilishni talab qilish, aksiyadorlarning korporativ qaror qabul qilishda huquqlarini oshirish, egalik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish orqali ozchilik investorlarni himoya qilishni kuchaytirdi.

Mamlakat chegaralari orqali savdo qilish, bojxona deklaratsiyalarini onlayn taqdim etish orqali eksportni tezlashtirdi.

Moldova. Qurilishga ruxsatnomalar olish masalasida: Moldova muhandislar tomonidan sifat nazorati ta'minlashda xavfi past bo'lgan yo'nalishlarda ruxsatnomalar olishni bekor qildi.

Soliqqa tortish: Moldova soliq to'lash tartibini osonlashtirdi.

Kontrakt (shartnoma)larni ijrosi masalasida: Moldova fuqarolik protsessual kodeksga o'zgartirish kiritib, kichik davolar uchun soddalashtirilgan tartiblarni joriy qildi va jarayonni osonlashtirdi.

Rossiya Federatsiyasi. Elektr energiyasi ta'minotiga ulanishda yangi qisqartirilgan muddatlar joriy etildi.

Minoritar investorlarni himoya qilish: korporativ shaffoflikni kuchaytirish orqali minoritar aksiyadorlarning himoya qilishni kuchaytirdi.

Soliqqa tortish: soliq to'lovichlarining QQSni qaytarish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish muddati qisqartirildi, 1S dasturini takomillashtirish orqali to'lovlarni osonlashtirishga erishildi.

Ozarbayjon. Kadastr tizimini raqamlashtirish va qamrovni oshirish orqali mulkni ro'yxatdan o'tkazish osonlashdi va shaffoflashdi.

Kredit olish: kredit olish uchun qo'yiladigan garovlarga chelovlarni bekor qilib jarayonni yanada osonlashtirdi.

Minoritar investorlarni himoya qilish: adolatsiz bitimlar uchun boshqaruvchilar javobgarligini kuchaytirib ozchilik aksiyadorlarni himoyasini kuchaytirdi.

Kontrakt (shartnoma)larni ijrosi masalasida: dastlabki shikoyatlarni elektron tarzda jo'natish uchun platformalar joriy qilinib shartnomalar ijrosini yaxshilashga erishildi.

Tojikiston. Biznesni boshlash: kompaniyalarni ro'yxatga olishni soddallashtirdi.

Kredit olish: unifikatsiyalangan, zamonaviy va ogohlantirishga asoslangan garov reestrini yo'lga qo'yish kredit olish imkoniyatini mustahkamladi.

Tojikiston chegaralari orqali savdo qilish: tez buziladigan mahsulotlar eksportini ustuvor bojaxona rasmiylashtiruviga ruxsat berish orqali eksport tezlashtirildi.

Qирғизистон Республикаси. Elektr ta'minotiga ulanish. Elektr ta'minotining uzilishini monitoringini kuchaytirish va uzilishlarni kamaytirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilindi va ta'minotning ishonchiligi oshirildi.

Kredit olish: banklar, moliya institutlari va qarz oluvchilarga kredit ballari berish orqali kredit ma'lumotlari bazasiga kirishni yaxshiladi.

Soliqqa tortish: soliq to'lashning onlayn platformasi yaratilib soliq to'lash osonlashtirildi.

Qozog'iston. Biznesni boshlash: birlashayotgan kompaniyalarni QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish orqali biznesni boshlash osonlashtirildi.

Qurilishga ruxsatnomalar olish masalasida: qurilish loyihasining ekspert baholash osonlashtirildi, yangi suv ta'minotini olish engillashtirildi.

Kredit olish: to'lovga qodir kredit oluvchilarga mutlaq ustuvorlik berish, va chakana sotuvchilarning kreditlar to'g'risida ma'lumotlarni tarqatish orqali jarayonni yaxshilashga erishdi.

O'zbekiston. Minoritar investorlarni himoya qilish: aksiyadorlarning huquqlari va yirik korporatsiyalarda qarorlar qabul qilishda rolini oshirish, mulk huquqi, korporativ shaffoflik va nazorat tizimlariga aniqlik kiritish orqali ozchilik aksiyadorlarni himoya qilish kuchaytirildi.

Soliqqa tortish: infrastruktura solig'i va korporativ foyda soliqlarini birlashtirish orqali jarayon soddalashtirildi.

Chegara savdolari: import hujjatlarini soddalashtirish va xavf-xatarlar bo'yicha tekshiruvlarni joriy etib chegara savdolari yaxshilandi.

Kontrakt (shartnomalarini ijrosi masalasida: O'zbekiston tomonlarni moliyaviy rag'batlantirish, ma'lumotlarni oshkor qilish talablarini takomillashtirib jaryonni engillashtirdi.

Yuqorida qayd etilgan MDH mamlakatlarda ijobiy o'zgarishlar asosida reyting ko'rsatkichlari yaxshilangan bo'lsa, Belorusda aksincha, reyting ko'rsatkichlari salbiy tomonga o'zgardi. Buning asosiy sababi, Belorusda aksiyadorlik jamiyatining bitimlarini jamoatchilikka, nazorat organiga yoki fond birjasiga oshqor qilish muddatini uzaytirilganligi asosida ozchilik aksiyadorlarning himoyasi zaiflashtirilganlidadir.

4.4. Biznes yuritish reytingi va investitsiyalar oqimi o'rtaqidagi bog'liqlik

Doing business yoki Biznes yuritish xalqaro reytingining mohiyati aslida ehtimoliy investorlarga muay'yan mamlakatda biznes yuritish istiqbollari, investoring qonunchilik va davlat institutlari tomonidan himoyalanganligi, resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlari kafolatlanganligi va boshqa muhim ma'lumotlarni qisqa va lo'nda shaklda taqdim etishidir.

Ma'lumki investorlar o'z mablag'larini foyda olish uchun biror-bir mamlakatga kiritishni va uzoq muddatli biznes faoliyat olib borishni istashadi. Qaysi mamlakatlarga investitsiya kiritish qarorini esa usha mamlakatlarda mavjud shart-sharoitlarni baholagan holda qabul qiladi. Mamlakatlarning Doing business xalqaro reytingdagi o'rni va keyingi yillardagi undagi o'zgarishlar investorlar uchun juda muhim ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Demak, mamlakatning Doing business indeksidagi o'rni qancha yuqori bo'lsa, investorlarning ushbu mamlakatga o'z mablag'larini olib

kirishlari uchun ishonch shuncha yuqori bo‘ladi. Shu sababdan ham, Doing business xalqaro indeksi va investitsiyalar o‘rtasida zich bog‘liqlik mavjud. Ushbu fikrni tasdig‘i mamlakatlarning Doing business reytingi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

4.3-jadval

DOING BUSINESS 2020 reytingi¹³

1 New Zealand 86.8	65 Puerto Rico (U.S.) 70.1	128 Barbados 57.9
2 Singapore 86.2	66 Brunei Darussalam 70.1	129 Ecuador 57.7
3 Hong Kong SAR, China 85.3	67 Colombia 70.1	130 St. Vincent and the Grenadines 57.1
4 Denmark 85.3	68 Oman 70.0	131 Nigeria 56.9
5 Korea, Rep. 84.0	69 Uzbekistan 69.9	132 Niger 56.8
6 United States 84.0	70 Vietnam 69.8	133 Honduras 56.3
7 Georgia 83.7	71 Jamaica 69.7	134 Guyana 55.5
8 United Kingdom 83.5	72 Luxembourg 69.6	135 Belize 55.5
9 Norway 82.6	73 Indonesia 69.6	136 Solomon Islands 55.3
10 Sweden 82.0	74 Costa Rica 69.2	137 Cabo Verde 55.0
11 Lithuania 81.6	75 Jordan 69.0	138 Mozambique 55.0
12 Malaysia 81.5	76 Peru 68.7	139 St. Kitts and Nevis 54.6
13 Mauritius 81.5	77 Qatar 68.7	140 Zimbabwe 54.5
14 Australia 81.2	78 Tunisia 68.7	141 Tanzania 54.5
15 Taiwan, China 80.9	79 Greece 68.4	142 Nicaragua 54.4
16 United Arab Emirates 80.9	80 Kyrgyz Republic 67.8	143 Lebanon 54.3
17 North Macedonia 80.7	81 Mongolia 67.8	144 Cambodia 53.8
18 Estonia 80.6	82 Albania 67.7	145 Palau 53.7
19 Latvia 80.3	83 Kuwait 67.4	146 Grenada 53.4
20 Finland 80.2	84 South Africa 67.0	147 Maldives 53.3
21 Thailand 80.1	85 Zambia 66.9	148 Mali 52.9
22 Germany 79.7	86 Panama 66.6	149 Benin 52.4
23 Canada 79.6	87 Botswana 66.2	150 Bolivia 51.7
24 Ireland 79.6	88 Malta 66.1	151 Burkina Faso 51.4
25 Kazakhstan 79.6	89 Bhutan 66.0	152 Mauritania 51.1
26 Iceland 79.0	90 Bosnia and Herzegovina 65.4	153 Marshall Islands 50.9
27 Austria 78.7	91 El Salvador 65.3	154 Lao PDR 50.8
28 Russian Federation 78.2	92 San Marino 64.2	155 Gambia, The 50.3
29 Japan 78.0	93 St. Lucia 63.7	156 Guinea 49.4
30 Spain 77.9	94 Nepal 63.2	157 Algeria 48.6
31 China 77.9	95 Philippines 62.8	158 Micronesia, Fed. Sts. 48.1
32 France 76.8	96 Guatemala 62.6	159 Ethiopia 48.0
33 Turkey 76.8	97 Togo 62.3	160 Comoros 47.9
34 Azerbaijan 76.7	98 Samoa 62.1	161 Madagascar 47.7
35 Israel 76.7	99 Sri Lanka 61.8	162 Suriname 47.5
36 Switzerland 76.6	100 Seychelles 61.7	163 Sierra Leone 47.5
37 Slovenia 76.5	101 Uruguay 61.5	164 Kiribati 46.9
38 Rwanda 76.5	102 Fiji 61.5	165 Myanmar 46.8
39 Portugal 76.5	103 Tonga 61.4	166 Burundi 46.8
40 Poland 76.4	104 Namibia 61.4	167 Cameroon 46.1
41 Czech Republic 76.3	105 Trinidad and Tobago 61.3	168 Bangladesh 45.0
42 Netherlands 76.1	106 Tajikistan 61.3	169 Gabon 45.0
43 Bahrain 76.0	107 Vanuatu 61.1	170 São Tomé and Príncipe 45.0
44 Serbia 75.7	108 Pakistan 61.0	171 Sudan 44.8
45 Slovak Republic 75.6	109 Malawi 60.9	172 Iraq 44.7
46 Belgium 75.0	110 Côte d'Ivoire 60.7	173 Afghanistan 44.1
47 Armenia 74.5	111 Dominica 60.5	174 Guinea-Bissau 43.2

¹³ <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>

48 Moldova 74.4	112 Djibouti 60.5	175 Liberia 43.2
49 Belarus 74.3	113 Antigua and Barbuda 60.3	176 Syrian Arab Republic 42.0
50 Montenegro 73.8	114 Egypt, Arab Rep. 60.1	177 Angola 41.3
51 Croatia 73.6	115 Dominican Republic 60.0	178 Equatorial Guinea 41.1
52 Hungary 73.4	116 Uganda 60.0	179 Haiti 40.7
53 Morocco 73.4	117 West Bank and Gaza 60.0	180 Congo, Rep. 39.5
54 Cyprus 73.4	118 Ghana 60.0	181 Timor-Leste 39.4
55 Romania 73.3	119 Bahamas, The 59.9	182 Chad 36.9
56 Kenya 73.2	120 Papua New Guinea 59.8	183 Congo, Dem. Rep. 36.2
57 Kosovo 73.2	121 Eswatini 59.5	184 Central African Republic 35.6
58 Italy 72.9	122 Lesotho 59.4	185 South Sudan 34.6
59 Chile 72.6	123 Senegal 59.3	186 Libya 32.7
60 Mexico 72.4	124 Brazil 59.1	187 Yemen, Rep. 31.8
61 Bulgaria 72.0	125 Paraguay 59.1	188 Venezuela, RB 30.2
62 Saudi Arabia 71.6	126 Argentina 59.0	189 Eritrea 21.6
63 India 71.0	127 Iran, Islamic Rep. 58.5	190 Somalia 20.0
64 Ukraine 70.2		

Jadvaldan o‘rin olgan mamlakatlar mavqesiga ko‘ra ushbu mamlakatlarda qulay xorijiy investitsiyalar oqimini kuzatish mumkin.

4.5. O‘zbekistonning biznes yuritish reytingidagi o‘rni va uni oshirish yo‘llari

O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot sohalari va jamiyat hayotini erkinlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar natijasi o‘larоq mamlakatning Doing business xalqaro reytingdagi o‘rni mutassil yaxshilanib bormoqda. Xususan, 2015 yilda O‘zbekiston Doing business xalqaro reytingda 141 o‘ringa ega bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda 87, 2018 yilda 74, 2019 yilda 76 va niyoyat 2020 yilda 69 o‘rinni qayd etdi.

Albatta O‘zbekiston 190 ta jahon mamlakatlari orasida va ayniqsa MDH mamlakatlari bilan solishtirganda quyi o‘rnlarda bormoqda. Biroq, ushbu holatda 5 yilik muddatda O‘zbekistonning reytingda katta sakrashni amalga oshirganini qayd etishimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Doing business xalqaro reytingda sezilarli ijobjiy o‘zgarishga erishgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori o‘rinni egallash uchun mamlakatda kichik va o‘rtalik biznes sub’ektlari uchun maksimal qulayliklarni taqdim etish lozim bo‘ladi. Shuning bilan birga, kichik va o‘rtalik biznes sub’ektlarini faoliyatidagi mavjud to‘siq va cheklovlarini to‘liq bartarf etish talab etiladi. Shuningdek, ma’lumot yoki ruxsatnomalar olish, ro‘yxatdan o‘tish, kredit mablag‘larini bank va moliya institutlaridan olish, soliqqa tortish va tadbirkorlik sub’ektlarini huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq jarayonlarda shaffoflikni ta’minlash yuqori reyting ko‘rsatkichlariga asos bo‘ladi.

Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi yillik hisobotida (Doing Business 2020) so'nggi bir yilda O'zbekiston Respublikasi biznes islohotini amalga oshirishda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirishga imkon bergen to'rtta islohotni amalga oshirgani to'g'risidagi axborotni tarqatdi. Xususan, minoritar investorlarni himoyasi kuchaytirilgan Bunda minoritar aksiyadorlarning yirik korporatsiyalarda qarorlar qabul qilishda rolini oshirish, korporativ shaffoflik va nazorat tizimlari takomillashtirilganligi ijobiy baholangan. Shuningdek, ayrim soliqlarni birlashtirish, unifikatsiyalash orqali jarayon optimallashtirilgani, chegara savdolarida xavf-xatarlarni oldini olish mexanizmlari joriy etilganligi, import kontraktlari bilan bog'liq hujjatlar soddalashtirilganligi ta'kidlanadi.

2020 yilda O'zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o'rinni egallab, 7 pog'onaga ko'tarildi.

Umuman olganda davlat rahbari va hukumat boshlig'ining O'zbekistonni xalqaro maydonda nufuzi va imidjini yaxshilash, xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga yo'naltirilgan hatti-harakatlari o'zining natijasini bera boshladi va o'yaymizki, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaqin istiqbolda sezilarli ravishda mustahkamlanadi.

Asosiy atamalar va tushunchalar

Biznes yuritish reytingi, investitsiyalar oqimi, biznes yuritish qulayligi, biznesni ruyxatga olish, faoliyatni litsenziyalash.

Qisqacha xulosha

Biznes yuritish reytingi 2002 yildan boshlab Jahon banki tomonidan asos solingen va milliy iqtisodiyotlarda biznes faoliyatini boshlash, olib borish jarayonlarining qulayligi baholanadi. Biznes yuritish (Doing business) reytingi va uning ko'rsatkichlari so'rovnomalar natijalariga tayanib hisoblab chiqiladi va milliy mamlakatlar tomonidan nisbatan ob'ektiv baholash usuli deb tan olinadi.

Biznes yuritish reytingi na'munaviy korxona, tadbirkor faoliyati misoldida mavjud qulaylik va to'siqlar baholanib mamlakat miqyosida umumlashtirib xalqaro reyting chiqariladi. Mazkur reytingda bugungi kunda etakchi industrial mamlakatlarning mavqeい yuqori bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, MDH mamlakatlarning egallagan o'rinalari nisbatan past hisoblanadi. Biroq keyingi yillarda

biznesni ruyxatga olish va moliyalashtirish yo‘nalishlarida yaratilgan qulayliklar evaziga Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjonda reyting ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishiga erishildi. Shuning bilan birga, MDH mamlakatlari amaliyotida hali hanuzgacha ma’lum darajadagi cheklovlarining saqlab qolinganligi Doing business xalqaro reytingida etakchi o‘rinlarni egallahash imkoniyatini bermayapti.

Nazorat uchun savollar

1. Biznes yuritish loyihasiga qaysi yili va qanday tashkilot tomonidan asos solingan?
2. “Doing Business”ning (DB) birinchi ma’ruzasi birinchi marta qaysi yili rasman chop etildi va nechta mamlakat unda ishtirop etgandi?
3. “Doing Business” indeksini hisoblash metodikasining asosini tashkil etuvchi tartib nimadan iborat?
4. “Doing Business” indeksida etakchi besh mamlakatning ketma-ketligini aytинг.
5. “Doing Business” indeksida MDH mamlakatlarining o‘rnining ijobjiy tomonga o‘zgarishi asosan qaysi omillar ta’sirida kechdi?
6. Qaysi omillar va sabablar MDH mamlakatlarining reytingda etakchi o‘rinlarni egallahishiga tusqinlik qilmoqda?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4047-son Farmoni. //”Xalq so‘zi”, 2017 yil 8 fevral
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4210-sonli qarori. <http://www.lex.uz/docs/4215422>
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
4. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.
5. Шваб, Клаус. Технологии Четвертой промышленной

революций: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис. – Москва: Эксмо, 2018. – 320 с.

6. The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org

7. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz

8. Бородин К.Г. Теории международной торговли и торговая политика. Российский внешнеэкономический вестник. № 1 (Январь) 2006. С.9-18.

9. Дик А., Гуринов Е. Оценка международной конкурентоспособности стран по методике Всемирного экономического форума. Наука и инновации №11 (128) Ноябрь 2013. С.27-31.

10. Козырь Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.

11. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюллетень Міжнародного Нобелівського економічного форуму. 2012. № 1 (5). Том 2. С.390-398.

12. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография: в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.

13. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.

14. <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>

5-MAVZU. MDH MAMLAKATLARIDA INSON TARAQQIYOTI INDEKSI KO'RSATKICHLARI

- 5.1. Inson taraqqiyoti indeksi (ITI)ning mohiyati va paydo bo'lishi
- 5.2. Inson taraqqiyoti indeksining asosiy tashkil etuvchilari
- 5.3. Inson taraqqiyoti indeksining hisoblash usuli
- 5.4. Inson taraqqiyotini ifodalovchi boshqa indekslar: tengsizlikni hisobga olib tuzatilgan inson taraqqiyoti indeksi, gender rivojlanishi indeksi, gender tengsizligi indeksi
- 5.5. MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksining tendensiyalari va uni oshirish yo'llari

5.1. Inson taraqqiyoti indeksining mohiyati va paydo bo'lishi

Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index – HDI) ilk bor 1990 yilda e'lon qilingan bo'lib, 2013 yilgacha "inson salohiyatini rivojlanirish indeksi" nomi bilan ma'lum bo'lgan. Mohiyatiga ko'ra inson taraqqiyoti indeksi har yili hisoblab boriladigan integral ko'rsatkich bo'lib, turmush darajasi, savodxonlik, ta'lif va umr davomiyligi darajalarini davlatlararo qiyoslash va baholashda foydalaniadi.

XX asrda jamiyat rivojlanishida asosan iqtisodiy rivojlanish konsepsiysi ustuvor g'oya sifatida keng tarqalgan edi. Unga ko'ra, yuqori iqtisodiy o'sish darajasiga erishish mamlakatlar uchun asosiy maqsad bo'lib, uning natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) va uning aholi jon boshiga ko'rsatkichlarining yuqori darajasi va mos ravishda yuqori farovonlik darajasi ta'minlanadi.

Iqtisodiy o'sish konsepsiysi sodda va aniqligi sababli hozirga davrgacha mamlakatlar rivojlanish darajalarini qiyoslash va tahlil qilishda keng qo'llanib kelinmoqda. Biroq, XXI asrga kelib iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining jamiyat va insoniyat rivojlanishini baholashdagi zaif tomonlari ko'zga tashlanib qoldi. Avvalombor, iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va aholi daromadlarining o'rtacha darajasi har doim ham muay'yan jamiyatni tashkil etuvchi insonlarning gumanitar ehtiyojlari bilan bog'liq emasligi ayon bo'lib qoldi. Misol tariqasida aholi jon boshiga YAIM yuqori bo'lgan mamlakatda yuqori harbiy xarajatlar va milliy daromadni taqsimlanishidagi tabaqlananish ushbu mamlakat fuqarolarini turmush darajasini past darajasida bo'lishini ta'minlaydi. Ko'rinish turibdiki, inson va uning ehtiyojarini birinchi o'ringa olib chiqish uchun

birinchi navbatda iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasidan voz kechish va yangicha yondashuvlarni qo'llash lozimligini talab etdi.

Inson taraqqiyoti indeksining g'oyasi va asosi pokistonlik taniqli iqtisodchi Mahbub ul-Haq boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, uning konseptual tarkibi asoslari hindistonlik taniqli iqtisodchi Amartya Kumar Sen tomonidan rivojlantirildi.

Inson taraqqiyoti indeksining asosida inson va uning imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi turadi. Inson taraqqiyot konsepsiyasiga ko'ra, jamiyat rivojlanishi markazida faqatgina oddiy iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki avvalo inson turadi. Taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasining bosh mezoni – odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiiy, jamiyatda umum e'tirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan ma'nnaviy va moddiy ehtiyojlarini sifatliroq qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish demakdir.

5.2. Inson taraqqiyoti indeksining asosiy tashkil etuvchilari

Oddiy qilib aytganda inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index (HDI) mamlakatlar va jahon mintaqalarida insonning rivojlanishini tavsiflovchi yig'ma ko'rsatkichdir. Inson taraqqiyoti indeksi har yili Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ekspertlari va xalqaro mustaqil ekspertlar bilan birgalikda hisoblab chiqiladi. Ekspertlar tomonidan indeksni hisoblashda tahliliy ishlannalar bilan birga milliy va xalqaro tashkilotlarning statistika ma'lumotlaridan foydalilanadi. Hisoblangan indekslardan Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson taraqqiyotiga bag'ishlangan yillik ma'ruzalarida keng qo'llaniladi. BMTning inson taraqqiyoti ma'ruzalarini mintaqalar, milliy va xalqaro darajalarda tayyorlanadi.

Inson solohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi BMTTD tomonidan yaratilgan intellektual mahsulot hisoblanadi. BITTD tomonidan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti baholangan birinchi ma'ruza 1990 yilda e'lon qilindi. Unda inson taraqqiyoti quyidagicha ta'riflanadi: "insonning taraqqiyoti uning tanlov imkoniyatlarining kengayish jarayonidir". Tanloving muhim unsurlari sifatida uzoq va sog'lom umr ko'rish, ta'lim olish va loyiq turmush darajasiga ega bo'lish belgilanadi. Siyosiy erkinliklar, kafolatlangan inson huquqlari va o'zini hurmat qilish tanloving qo'shimcha unsurlaridir. Mazkur dunyoqarash tizimi insonning hayot sifatini oshirish, turli jabhalardagi imkoniyatlarini kengaytirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi 2010 yilgi ma’ruzada “inson taraqqiyoti” tushunchasi yanada kengaytirildi. Loyiha mualliflarining fikriga ko‘ra, inson taraqqiyotini uning tanlash imkoniyatlarini kengayishi sifatida qarash o‘ta mo‘him bo‘lsa-da, lekin buning o‘zi etarli emas. Insonning taraqqiyoti ijobiy natijalarning uzoq muddatli davomiyligini va insonlarga zulm o‘tkazish va tarkibiyadolatsizlik jarayonlariga yo‘l qo‘ymaslikni ko‘zda tutadi. Taklif etilgan o‘zgartirish asosida BMT ekspertlari tomonidan inson taraqqiyoti muammolarini tadqiqoti va amaliyotiga mos keluvchi yangi, aniqlashtirilgan ta’rif taklif etildi: “inson taraqqiyoti bu insonlarning uzoq, sog‘lom va ijodkorlik hayot bilan yashash erkinliklarini kengaytirish jarayonlari bo‘lib, sayyoramizni barqaror rivojlanishi va adolatni ta‘minlashdagi insonning faol ishtiroki kabi maqsadlarni ham o‘zida jamlaydi”.

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda inson taraqqiyoti uchta komponentdan tarkib topadi:

Farovonlik: insonning real erkinliklarini shunday kengayishiki, natijada insonlar va jamiyat gullab-yashnaydi.

Huquqlar, imkoniyatlar va mavqe: insonlar va ular guruhlarining harakat qila olishlari va ahamiyatli natijalarga erisha olishlari imkoniyatlari.

Adolat: ijtimoiy adolatni kuchaytirish va inson huquqlarini hurmat qilish va shuningdek, olingan natijalarning barqarorligini uzoq muddatlarda ta‘minlanishi.

5.3. Inson taraqqiyoti indeksining hisoblash usuli

Inson taraqqiyoti indeksi muayyan bir mamlakatdagi inson turmush darajasining kompleks ko‘rsatkichi bo‘lib, ko‘pgina holatlarda “hayot sifati” yoki “tur mush daroji” tushunchalariga sinonim sifatida qo‘llanib kelinadi. Inson taraqqiyoti indeksi mamlakat erishgan natijalarni fuqarolarning sog‘lomligi, ta’lim olishi va amaldagi daromadlari nuqtai nazaridan o‘chaydi va baholaydi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘zining alohida indekslari mavjud:

Kutilayotgan hayot davomiyligi indeksi: inson tug‘ilganida o‘rtacha kutilayotgan hayot davomiyligi ko‘rsatkichi orqali o‘lchanadigan sog‘lomlik va uzoq umr ko‘rish.

Ta’lim indeksi: maktab yoshidagi bolalar o‘qishining o‘rtacha kutilayotgan davomiyligi va yuqori yoshdagi aholi o‘qishining o‘rtacha davomiyligi orqali o‘lchanadigan ta’lim olish imkoniyati.

Yalpi milliy daromad indeksi: xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha AQSH dollarida hisoblangan aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YAMD) hajmi orqali o'lchanadigan munosib turmush darajasi.

Ushbu uchchala o'lchamlar qiymati 0 dan 1 gacha raqamlarda standartlashtirilib, ularning o'rtacha geometrik qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan Inson taraqqiyoti indeksini o'zida aks ettiradi. Egallagan qiymatidan kelib chiqib, davlatlar tartibi shakllantiriladi.

2010 yilga kelib, Inson taraqqiyoti indeksini o'lchaydigan indikatorlar kengaytirilib, ITIning o'zi ham sezilarli darajada o'zgardi.

Yig'ma ko'rsatkich hisoblangan va ichki tengsizlikni hisobga olmaydigan o'rtacha mamlakat statistika ma'lumotlariga tayangan Inson taraqqiyoti indeksiga qo'shimcha ravishda yana to'rtta yangi indikator kiritildi: tengsizlikni hisobga olib tuzatilgan inson taraqqiyoti indeksi (THITI), gender tengsizligi indeksi (GTeI), Gender taraqqiyoti indeksi (GTI) va ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi (KO'KI).

Tadqiqotni tayyorlash jarayonida mamlakatlar va mintaqalarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarini oolib beruvchi ko'plab quyidagicha omillar hisobga olinadi: inson huquqlari va va fuqaro erkinligi holati, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyalari, ijtimoiy himoyalanganlik, aholining hududiy va ijtimoiy mobilligi, madaniy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari, informatsiya olish imkoniyati, sog'liq, ishsizlik darajasi, jinoyatchilik va huquqbazarlik holati, atrof-muhit himoyasi va boshqalar.

Yakuniy reytingda barcha mamlakatlar Inson taraqqiyoti indeksi asosida tartiblanadi va qabul qilingan darajalar bo'yicha to'rtta kategoriyaga tasniflanadi:

- o'ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar (0.9 dan yuqori).
- yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar (0.8 dan 0.9 gacha).
- o'rta darajali ITIga ega mamlakatlar (0.5 dan 0.8 gacha).
- past darajali ITIga ega mamlakatlar (0.5 dan past).

Indeksni hisoblashda ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda talab etilayotgan statistik ma'lumotlarning yo'qligi, ayrim o'tish mamlakatlarida esa ma'lumotlarning to'liq ayrim turlari mavjud emasligi qiyoslash uchun kerakli ko'rsatkichlarni olishda bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shuni ham qayd etish lozimki, ma'lumotlarning milliy statistika tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan qismi har doim ham ishonchli deb bo'lmaydi, ko'pgina holatlarni milliy hukumatlar tomonidan ularni bo'ftirib ko'rsatish holatlari uchraydi.

5.4. Inson taraqqiyotini ifodalovchi boshqa indekslar: tengsizlikni hisobga olib tuzatilgan inson taraqqiyoti indeksi, gender rivojlanishi indeksi, gender tengsizligi indeksi

Yuqoridagi bo‘limda qayd etilganidek, 2010 yilga kelib, Inson taraqqiyoti indeksini o‘lchaydigan indikatorlar kengaytirilib, ITIning o‘zi ham sezilarli darajada o‘zgardi. Bunga ayni sabab, mamlakatlar va hududlarda inson taraqqiyoti bilan bog‘liq jarayonlarning xususiyatini to‘liq ochish va baho berish edi. Keyingi yillarda gender masalalari ahaliyatini oshib borishi natijasida gender rivojlanish bilan bog‘liq indekslarga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Yig‘ma ko‘rsatkich hisoblangan va ichki tengsizlikni hisobga olmaydigan o‘rtacha mamlakat statistika ma’lumotlariga tayangan Inson taraqqiyoti indeksiga qo‘srimcha ravishda yana to‘rtta yangi indikator kiritildi: tengsizlikni hisobga olib tuzatilgan inson taraqqiyoti indeksi (THITI), gender tengsizligi indeksi (GTel), Gender taraqqiyoti indeksi (GTI) va ko‘p o‘lcharmlı kambag‘allik indeksi (KO‘KI).

Ilovadagi 1-jadvalda inson taraqqiyoti indeksi va boshqa yig‘ma indekslarning 2019 yildagi natijalari keltirilgan.

Jadvalda mamlakatlar 4 guruhga, ya’ni o‘ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar (0.9 dan yuqori), yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar (0.8 dan 0.9 gacha), o‘rta darajali ITIga ega mamlakatlar (0.5 dan 0.8 gacha) va past darajali ITIga ega mamlakatlar (0.5 dan past)ga guruhlangan.

Jadvalning o‘ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar guruhidagi birinchi pog‘onasini Norvegiya egallangan. Keyingi o‘rinlarni bugungi kunda jamiyatda inson taraqqiyotining yuqori darajasini ta’minlashga erishgan davlatlar: Shveysariya, Irlandiya, Germaniya, Gonkong, Xitoy, Avstraliya, Islandiya, Shvetsiya, Singapur, Niderlandiya egallagan.

Jadvalning quyi 10 ta davlatlari asosan inson taraqqiyoti yo‘nalishida ko‘plab muammolarga duch kelayotgan mamlakatlar, xususan, Mozambik, Serra-Leone, Burkina-Faso, Eritreya, Mali, Burundi, Janubiy Sudan, Chad Markaziy Afrika Respublikasi, Niger. Ushbu davlatlarning aksariyatida joriy muammolar bilan birgalikda ichki harbiy to‘qnashuvlar va fuqarolik urushlari borayotganligini ko‘rish mumkin.

5.5. MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksining tendensiyalari va uni oshirish yo'llari

MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksi darajasi yuqori hisoblanmasa-da, ko'rsatkichlar tizimida nisbatan muammolarsiz guruhlardan o'rinni olgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi (49 o'rinni), Belorus (50 o'rinni) va Qozog'iston (50 o'rinni) o'ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar guruhidan o'rinni olgan. Biroq, ushbu guruh doirasida MDH mamlakatlari nisbatan quyisi o'rinnlarni egallashgan.

Ikkinchini guruh hisoblanmish yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar qatoridan Armaniston (81 o'rinni), Ozarbayjon (87 o'rinni), Moldova (107 o'rinni), Turkmaniston (108 o'rinni) va O'zbekiston (108 o'rinni) joy olishgan.

O'rta darajali ITIga ega mamlakatlar qatoriga MDHning Qирғизистон (122 o'rinni) va Tojikiston (125 o'rinni) davlatlari o'rinni olishgan.

5.1-jadval

MDH mamlakatlarining Inson taraqqiyoti indeksida tutgan o'rni

	2018 y. ITI reytingi	ITI	Tengsizlik hisobga olingan ITI		GTI	GTeI	
		qiymati	qiymati	(%)	THITI	qiymati	qiymati
O'ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar							
49	Rossiya	0,824	0,743	9,9	1	1,015	0,255
50	Belarus	0,817	0,765	6,4	6	1,01	0,119
50	Qozog'iston	0,817	0,759	7,1	4	0,999	0,203
YUqori darajali ITIga ega mamlakatlar							
81	Armaniston	0,76	0,685	9,9	9	0,972	0,259
87	Ozarbayjon	0,754	0,683	9,4	13	0,94	0,321
107	Moldova	0,711	0,638	10,4	21	1,007	0,228
108	Turkmaniston	0,71	0,579	18,5	1
108	O'zbekiston	0,71	0,939	0,303
O'rta darajali ITIga ega mamlakatlar							
122	Qирғизистон	0,674	0,61	9,5	23	0,959	0,381
125	Tojikiston	0,656	0,574	12,5	12	0,799	0,377
Tutgan o'rinni							

MDH mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksida tutgan o'rinni ko'p jihatdan mazkur mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, turmush darajasi, ta'limga tizimining davomiyligi va sifati, Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi sifati bilan ta'minlanganligini ko'rish mumkin. Bizning fikrimizga ko'ra, ta'limga va sog'liqni saqlash tizimlari ta'sirining shartli ravishda tengligini ta'kidlagan holda iqtisodiy rivojlanish va aholi daromadlari

darajasi ko‘p jihatdan hal qiluvchi ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin.

Xususan, o‘ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar guruhiba kiruvchi Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog‘iston bugungi kunda YAMMning aholi jon boshiga ko‘rsatkichi bo‘yicha MDHda etakchi o‘rnlarni egallab kelish bilan birga, keyingi guruh davlatlarini ancha orqada qoldirishgan. Ushbu guruh davlatlar iqtisodiy rivojlanish salohiyatlarini to‘g‘ri baholagan holda, yaqin va o‘rtal istiqbolda ularning inson taraqqiyoti indeksidagi o‘rnlari sezilarli darajada o‘zgarishsiz qolishi mumkinligini prognoz qilish mumkin.

Xuddi shuningdek, yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar guruhi ham imkoniyatlari chegarasida faoliyat olib borayotganliklarini va ushbu mamlakatlarda kuzatilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar iqtisodiy o‘sish sur’atlarini pasaytirgan holda qisqa va o‘rtal istiqbolda mazkur mamlakatlarning o‘z guruhlaridagi o‘rnlarini o‘zgarishsiz qolishini prognozlash mumkin. Shuning bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning maqbul strategiyasini tanlash natijasida Ozarbayjonda yuqori guruhdagi inson taraqqiyoti indeksiga o‘sish ehtimoli va imkoniyatlarini yuqori hisoblanadi.

Qirg‘iziston va Tojikiston bugungi kunda MDHning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va turmush darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng kam rivojlangan mamlakatlari ekanligini va keskin iqtisodiy o‘sish salohiyati turli ichki va tashqi omillar ta’sirida cheklanganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ushbu mamlakatlarning uzoq istiqbolda ham o‘rtal darajali ITIga ega mamlakatlar qatorida qolib ketishini, ayrim noxush ssenariy holatlarida yuz berganda esa quyi guruhga tushib qolishi ehtimoli yuqori ekanligini prognoz qilish mumkin.

Inson taraqqiyoti indeksida MDH mamlakatlarining o‘rnini yanada oshirish vazifasi o‘ta murakkab hisoblanmaydi va ushbu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning optimal modellarini tanlash va hayotga tadbiq etishni talab etadi. Buning uchun MDH mamlakatlarida etarli shart-sharoitlar va resurslar mavjud. Biroq, hukumat boshqaruv “sifatining” yomonligi va ichki va tashqi omillar ko‘p marotaba kuzatilganidek, belgilangan vazifalarни muvaffaqiyatli bajarishga imkon bermay kelmoqda.

inson taraqqiyoti indeksi, kutilayotgan hayot davomiyligi indeksi, ta'lim indeksi, yalpi milliy daromad indeksi.

Qisqacha xulosa

inson taraqqiyoti indeksi ilk bor 1990 yilda e'lon qilingan bo'lib, jahon mamlakatlarining ijtimoiy sohalari rivojlanishi ta'sirida insonlarning tanlov erkinliklari va qulayliklarga egalik darajalariga baho beruvchi integral ko'rsatkich hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksining g'oyasi va asosi pokistonlik taniqli iqtisodchi Mahbub ul-Haq boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, uning konseptual tarkibi asoslari hindistonlik taniqli iqtisodchi Amartya Kumar Sen tomonidan rivojlantirildi. Milliy mamlakatlarda shakllangan yalpi milliy daromad, ta'limning qamrovi, sifati va kutilayotgan hayot davomiyligi ko'rsatkichlari baholangan holda insonlar uchun yaratilgan qulaylik va tanlovlardarajasi aniqlanib yakuniy reyting e'lon qilib boriladi.

Reyting darajasi mamlakatda shakllangan daromadlarga qat'iy bog'langan. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yuqori darajadagi milliy daromad o'z navbatida sifatli ta'lim tizimini shakllantirish va yuqori darajadagi umr davomiyligini ta'minlab beradi. SHu sababdan ham inson taraqqiyoti indeksida rivojlangan davlatlarning mavqeい o'ta yuqori darajada saqlanib kelinmoqda. MDH mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksida tutgan o'rirlari ko'p jihatdan mazkur mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, turmush darajasi, ta'lim tizimining davomiyligi va sifati, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi sifati bilan ta'minlanganligini ko'rish mumkin. MDH mamlakatlaridan yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar guruhiga kiruvchi Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog'iston asosan YAMMning aholi jon boshiga ko'rsatkichi hisobiga MDHda etakchi o'rirlarni egallab kelishmoqda. Nisbatan past turmush darajasi, ta'lim va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlari past bo'lgan boshqa MDH mamlakatlarining reytingdagi o'rirlari pastligicha saqlanib qolmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Inson taraqqiyoti indeksi ilk bor qachon e'lon qilingan?
2. Inson taraqqiyoti indeksining g'oyasi va konseptual tarkibi qaysi olimlar tomonidan taklif etilgan?

3. Inson taraqqiyoti indeksi mamlakatlar va jahon mintaqalarida insonning rivojlanishini tavsiflovchi yig'ma ko'rsatkich sifatida nechta va qanday quyi indekslardan iborat?

4. Inson taraqqiyoti to'g'risidagi 2010 yilgi ma'ruzada "inson taraqqiyoti" tushunchasi qanday to'ldirildi va kengaytirildi?

5. MDH mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksidagi egallagan o'rinnari asosan qaysi omillar ta'sirida shakllandi?

6. MDH mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksidagi egallagan o'rinnarini ijobiy o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar nimalardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4047-son Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 8 fevral

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rmini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4210-sonli qarori. <http://www.lex.uz/docs/4215422>

3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.

4. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.

5. Шваб, Клаус. Технологии Четвертой промышленной революции: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис. – Москва: Эксмо, 2018. – 320 с.

6. The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org

7. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz

8. Бородин К.Г. Теория международной торговли и торговая политика. Российский внешнеэкономический вестник. № 1 (Январь) 2006. С.9-18.

9. Дик А., Гуринов Е. Оценка международной конкурентоспособности стран по методике Всемирного экономического форума. Наука и инновации №11 (128) Ноябрь 2013. С.27-31.
10. Козырь Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.
11. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюллетень Міжнародного Нобелівського економічного форуму. 2012. № 1 (5). Том 2. С.390-398.
12. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография: в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.
13. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.
14. http://hdr.undp.org/sites/default/files/hdr_2019_overview_russian.pdf

6-MAVZU. O'ZBEKISTONNING INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

6.1. O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'rni

6.2. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va milliy dasturlar

6.3. Ta'lim tizimi sifatini yaxshilash inson taraqqiyotini jadallashtirishning muhim omili

6.4. Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi

6.5. O'zbekistonda inson taraqqiyoti indeksini oshirish yo'llari

6.1. O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'rni.

Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index – HDI)da O'zbekiston tutgan o'rni yildan-yilga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, 2000-2018 yillar davomida ijobiy o'sgan bo'lib, yillarda oraliq ida quyidagicha qayd etildi. 2000 yilda indeks qiymati 0,596 dan 2010 yilga kelib 0,665, 2015 yilda 0,696 va 2018 yilga kelib 0,710 gacha o'sib bordi.

6.1-jadval

2000-2018 yillarda O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'rni

Yillarda	Inson taraqqiyot indeksi, yillar	ITI reytingida o'zgarish						
		2000	2010	2013	2015	2016	2017	2018
108	O'zbekiston	0,596	0,665	0,688	0,696	0,701	0,707	0,710

Bugungi kunda O'zbekiston qayd etgan inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichi bilan jahon davlatlari orasida O'zbekiston 108-o'rinni egallab yuqori darajali ITIga ega davlatlar guruhidan joy olgan. Albatta, jahon mamlakatlari bo'yicha yuqori darajali ITIga ega davlatlar qatoridan o'rinish sharafla va katta natija hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti indeksidagi ijobiy o'zgarishlarning asosi taxminan 2000 yillardan O'zbekistonda amalga oshirib kelinayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar bo'ldi, deb ta'kidlash xato bo'lmaydi.

Birinchidan, o'tish davrida O'zbekiston hukumati real iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish orqali jadal iqtisodiy o'sish va mos ravishda aholi turmush darajasini sezilarli yaxshilashga erishdi. Natijada mamlakatda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishga erishildi.

Ikkinchidan, ta'lism sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, kasbiy ta'lism tizimini joriy qilinishi, ta'limga ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar salmog'ining davlat byudjetidagi ulushining sezilarli oshganligi ham ijtimoiy sohada ma'lum darajada ijobiy tendensiyalarini boshlab yuborilishiga sababchi bo'ldi.

Uchinchidan, mamlakat bo'y lab chekka qishloqlargacha tibbiyot muassasalari (qishloq vrachlik punktlari)ni ochilishi, homilador ayollar sog'ligini monitoringini yo'nga qo'yilishi, bola oziqlanishi dasturlari va boshqa yangiliklar keng aholi qatlamlarining sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'z navbatida, aholi farovonligini oshishi turmush tarzida ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Jumladan, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, muntazam sport bilan shug'ullanish, zararli odatlardan voz kechish va boshqalar shunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning BMTTD tomonidan yuritiladigan inson taraqqiyoti indeksida yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar qatoridan joy olishining sababi, sobiq ittifoq tizimi davrida asos solingan to'laqonli majburiy o'rta ma'lumot tizimi va shuningdek, aholining barcha qatlamlarini tug'ilishidan tortib vafotigacha qamrab olgan bepul tibbiyot-profilatika tizimi hissasini ham alohida ta'kidlash lozim. Ushbu ikki omil, ya'ni yaxshi rivojlangan va barcha aholi qatlamlarini to'liq qamrab olgan ta'lism va tibbiyot tizimi sobiq ittifoq mamlakatlarining barchasi uchun ahamiyatlidir. Shu sababdan ham ITI reytingida MDHning barcha davlatlari o'ta yuqori, yuqori va o'rta darajali ITIga ega mamlakatlar guruhlaridan o'rin egallagan. Xususan, nisbatan iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lgan va mazkur sohalarga yirik investitsiyalarini va milliy kadrlar malakasini ta'minlashga erishgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Belorus ko'rsatkichlariga binoan munosib ravishda o'ta yuqori ITI mamlakatlar guruhidan o'rin olgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotganligiga qaramay ta'lism va tibbiyot tizimini munosib rivojlanish darajasini ta'minlashga harakat qilayotgan Armaniston, Ozarbayjon, Moldova, Turkmaniston va O'zbekiston munosib ravishda yuqori ITI mamlakatlar guruhidan o'rin olgan.

Biroq, qiyin iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qiyinchiliklar ta'siriga tushib qolgan va cheklangan moliyaviy resurslarga ega bo'lgan Tojikiston va Qирғизистон та'lим ва tibbiyat tizimiga etarli e'tibor bera olishmaganliklari sababli ITI indeksining o'rta darajali mamlakatlar guruhidan o'rın olishdi.

6.2. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va milliy dasturlar

Inson taraqqiyoti konsepsiyası BMTTD tomonidan e'lon qilinadigan yillik ma'ruzalarda o'z ifodasini topadi. Global ma'ruzalar doirasida milliy ma'ruzalar va dasturlar qabul qilinadi.

Insonni rivojlantirish to'g'risidagi milliy ma'ruzalarda mustaqil va xolis tahlil, statistik va boshqa ma'lumotlar aks etadi. Har bir mamlakatda inson taraqqiyoti istiqbollarini milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan muvofiqlashtiradi.

O'zbekistonda BMTTD tomonidan birinchi milliy ma'ruza 1995 yilda tayyorlandi va "Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy rivojlanish" deb nomlandi. Milliy ma'ruzada mehnat bozori, ijtimoiy himoya, ta'lif, sog'liqni saqlash, demografiya, ekologiya va barqraror rivojlanish, inson taraqqiyotini moliyalashtirish, gender va boshqa masalalar o'rın olgan.

Qabul qilingan Milliy ma'ruzalar mavzusidan aynan O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishlar kun tartibiga qo'yilgan va batafsil tahlil tayyorlangan.

1996 yilgi Insonni taraqqiyoti to'g'risidagi milliy ma'ruzasida iqtisodiy o'sish bilan insonni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tadqiq etildi. SHu maqsadda insonni rivojlantirishga xizmat qiladigan bozor islohotlariga baho berilgan, qishloq joylaridagi, sog'liqni saqlash va ta'limning ijtimoiy infratuzilmalarini mustaxkamlash muammolar ko'tarilgan, Shuningdek kambag'allik va uning turlicha o'lchamlari tahlil etilgan.

1997 yilgi milliy ma'ruza mavzusi "ijtimoiy yakdillik va insonni rivojlantirish" bo'lib, ijtimoiy yakdillikning ijtimoiy muammolar, jinoyatchilik va jamiyat rivojlanishining boshqa turli jihatlariga ta'sirining yuqori ekanligini e'tirof etgan holda mazkur masala kun tartibiga olib chiqildi.

1998 yilgi milliy ma'ruza mavzusi "Bozor iqtisodiyotga o'tish davrida davlatning demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazishdagi roli" deb tanlandi. Ma'ruzada davlatning o'tish davrida

iqitisodiy, ijtimoiy va demokratik islohotlarni amalgalashiridagi roli tahlil etildi. Shuningdek, jadallashtirish dasturlari munosabati bilan mamlakatda ishlab chiqilgan va amalgalashirilgan ijtimoiy strategiya ham o‘z ifodasini topdi.

6.2-jadval

1995-2008 yillarda BMTTD tomonidan O‘zbekiston bo‘yicha qabul qilingan Milliy ma’ruzalar mavzulari¹⁴

1995	Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy rivojlanish
1996	Iqtisodiy o‘sish va inson taraqqiyoti
1997	Ijtimoiy yakdillik va inson taraqqiyoti
1998	Bozor iqtisodiyotga o‘tish davrida davlatning demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o‘tkazishdagi roli
1999	O‘zbekiston mustaqillikka erishgan yildan beri o‘tgan davrga inson taraqqiyoti jihatidan nazar tashlash
2000	Inson taraqqiyotini kichik va o‘rtacha biznesni kengaytirish va rivojlantirish orgali kuchaytirish
2005	Markazsizlashtirish va inson taraqqiyoti
2006	Salomatlik barcha uchun: O‘zbekistonning yangi mingyillikdagi asosiy maqsadi
2007/2008	O‘zbekistonda ta’lim: talab va taklifning mutanosibligi

1999 yilgi Inson taraqqiyotiga bahishlangan milliy ma’ruzada XX asrning so‘nggi o‘n yilligida mamlakatni rivojlantirish yakunlari tadqiq etilgan. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning ijobjiy tendensiyalari va qonuniyatlarini insonni rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Mavjud global va mintaqaviy muammolar va qiyinchiliklarga baho berilgan.

2000 yilgi milliy ma’ruzada O‘zbekistonda inson taraqqiyotining ahvoli, kichik va o‘rtacha biznesning rivojlanish muammolari tahlil etilgan. Ma’ruzada inson taraqqiyoti bilan bog‘liq madaniyat, tengsizlik va globallashuv muammolari atroficha tadqiq etilgan.

2001-2003 yillarda mamlakatda insonni rivojlantirishda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar O‘zbekistonning 2005 yilgi ma’ruzasida o‘z ifodasini topgan. BMTning Mingyillik deklaratsiyasida qayd etilgan kambag‘allikka barham berish, inson qadr-qimmati, tengligi tamoyillarini qaror toptirish, tinchlik, demokratiya va barqaror rivojlanishi ta’minlash bo‘yicha vazifalar yoritilgan. Ma’ruzada inson taraqqiyoti va jamiyatni demokratlashtirishga

¹⁴ <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/>

qaratilgan muhim vazifalarini hal etishda davlat boshqaruvini markazlashsiztirish masalalari muhokama qilingan.

Inson taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblangan inson salomatligi masalalari 2006 yilgi milliy ma'ruzada muhokama qilingan. Inson taraqqiyoti sohasidagi umumiy tendensiyalar tahlil etilgan, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarining inson taraqqiyoti va boshqa indikatorlari bilan o'zaro aloqadorligi o'r ganilgan. Ma'ruzada shuningdek, BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari muammolariga, jumladan O'zbekiston oldida turgan muammolarga hamda mamlakatda inson taraqqiyotining milliy maqsadlariga erishish uchun ko'rilayotgan choralarga bag'ishlangan.

2007-2008 yillardagi Insonni taraqqiyoti to'g'risidagi milliy ma'ruzada ta'lif ko'rsatkichlarining inson taraqqiyotining boshqa indikatorlariga ta'siri tahlil etilgan. Ma'ruzada O'zbekiston ta'lif tizimining ahvoli jahondagi boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan qiyoslangan. Mamlakatning iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar tahlil etilgan.

Milliy ma'rzalarning asoslari sifatida Mingyillik rivojlanish maqsadlari dasturi va Barqaror taraqqiyot dasturi (BTD)ning maqsadlariga e'tiborni qaratsak.

Xususan, 2000 yilda BMTning Bosh Assambleyasida qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlari dasturi 2015 yilga borib inson taraqqiyotida belgilangan yuqori ko'rsatkichlarga erishish maqsadlarini qo'ydi. Dasturni qabul etgan mamlakatlar fikriga ko'ra erishilgan yaxshi natijalar sababli 2030 yilgacha mo'jallangan Barqaror rivojlanish dasturi qabul qilindi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari global loyiha hisoblanadi. Mazkur global dasturga mos ravishda har bir davlatning sharoiti, o'ziga xos xususiyatlari, belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda milliy maqsad va vazifalarni aniq belgilanadi.

Keng jamoatchilik xabardorligini oshirish va inson taraqqiyoti muammolari bo'yicha aniq choralarni ishlab chiqish maqsadlarida alohida mamlakat doirasida insonni rivojlantirish to'g'risida milliy ma'ruzalar ham tayyorlanishi ko'zda tutilgan. Ma'ruzalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tahliliy va strategik faoliyatining eng muhim manbalari hisoblanadi.

O'zbekiston hukumati BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarida ko'zda tutilgan vazifalarning milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati va muxumligini e'tirof qilgan holda Insonni rivojlantirishning

milliy maqsadlari tegishli vazifalari va asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqdi.

6.3. Ta'lismizimi sifatini yaxshilash inson taraqqiyotini jadallashtirishning muhim omili

Inson rivojlanishi konsepsiyasida ta'lismizimi asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta'lismizimi va ilm-fanni yuqori darajada rivojlan Tirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblangan. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi ki, 2000 yilgacha bo'lgan davrda oliy ma'lumotga ega aholining daromadi ma'lumotga ega bo'limganlarning daromadidan o'rtacha 1,5 baravar ko'pni tashkil etgan ekan. 2005 yilda esa bunday daromadlar o'rtasidagi farq 1,6 martani tashkil etdi va yanada o'sish tendensiyasiga ega. Shuningdek, tadqiqotlar ma'lumoti past odamlar ko'proq kam ta'minlanganlar safida bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Ayni paytda, oila boshlig'ining ma'lumoti to'liq o'rtadan past bo'lmasa, o'sha oilaning kambag'allashish xavfi kamroq. Aholisining savodi nisbatan yuqori mamlakat ishlab chiqarishni rivojlan Tirish, ish o'rinarini tashkil etish bo'yicha ko'proq imkoniyatga ega. Bunday mamlakatlarda odatda ishsizlik va ishga layoqatli aholining ish izlab boshqa davlatlarga borish darajasi past.

Yuqori ma'lumotli odamlar, kasbiy mahoratini muntazam oshirish, eng murakkab texnologiyalarni o'zlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan xodimlarga ega mamlakat transmilliy korporatsiyalar e'tiborini doim o'ziga jalb qiladi. Bu, ayniqsa, ilmtalab tovarlar ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan kompaniyalarning investitsiya siyosati haqida gap borganda juda seziladi. Odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga oqib keladi va bu erda yangi, ko'p haq to'lanadigan ish o'rinarini tashkil etadi.

Aholisining ma'lumoti nisbatan pastroq bo'lgan, kam sonli malakali ishchilar, muhandislar, menedjer va boshqa yuqori malakali mutaxassislarga ega mamlakatlar esa o'z moliyaviy jamg'armasi hisobidan rivojlanishi qiyin. Bunday mamlakatlar iqtisodiyotida xomashyo qazib olish, uni etarlicha qayta ishslash, murakkab bo'limgan texnika yig'ish va hokazolar bilan band past yoki o'rta texnologik ishlab chiqarishga mahkumdirlar.

Ma'lumoti yuqori odamning ma'lumotsiz kishiga qaraganda ish topishi osonroq. Har qanday mamlakatda ishsizlik darajasi har doim ma'lumotsiz aholisi orasida yuqori.

O'zbekistonda uy-ro'zg'or xo'jaliklari byudjetiga oid tadqiqotlar materiallari ishsizlik darajasi to'liqsiz yoki to'liq oliv ma'lumotga, ya'ni oliv ma'lumotga ega shaxslar orasida pastligini ko'rsatadi. Shu sababli ta'limni rivojlantirish, undan har bir fuqaroning foydalanishini kengaytirish ishsizlikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi shart.

Ta'lim va ijtimoiy tengsizlik. Ta'lim sohasidagi islohotlar, Shuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'ati va yo'nalishi dunyoning turli mamlakatlari hamda mintaqalariga bir xil ta'sir ko'rsatgani yo'q. Natijada, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tafovut yanada kuchaydi. Rivojlangan mamlakatlarda oliv ta'limning umumiyligi va uzlusiz ta'lim amalga oshirilgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hanuzgacha umumiyligi savodxonlik xususidagi masala hal etilganicha yo'q. Ta'limdan foydalanish borasidagi tengsizlik global taraqqiyot va har bir mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qashshoq mamlakatlarning hamma narsadan mahrum aholisining bilim olishi uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag' ulushi aholi umumiyligi soni hisobga olinadigan bo'lsa, yuqorida qayd etilgan aholi ulushidan ancha kam. Buning sababi kam ta'minlangan oilalardan chiqqan kishilar ko'pincha o'rta, ayniqsa oliv ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatidan mahrumligicha qolmoqda. Qator qashshoq davlatlarda pulli ta'limning joriy etilishi ta'lim qamrovini kamayishiga olib kelmoqda. Ma'lumki, kam ta'minlangan oilalarning o'z farzandlarining bilim olishi uchun pul to'lash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Etim va qarovsiz bolalar ham shunday ahvolda. Dunyoning kam rivojlangan ko'plab mamlakatlarida ularning soni niroyatda ko'p.

Bundan tashqari, bilim olishdan keng foydalanish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni, shuningdek, bir mamlakat miyosida odamlar o'rtasidagi tengsizlikni ham bartaraf etishi mumkin.

Bu borada, ayniqsa, qashshoq oilalarga ularning farzandlari boshlang'ich muktabga borish sharti bilan oziq-ovqat bilan ta'minlanish imkonini bergen «Maktab ta'limi uchun oziq-ovqat» dasturi o'z samarasini berdi. Bu tadbir muktablarga qizlarni jaib qilish ko'rsatkichini oshirish va o'qishni tashlab ketadiganlar sonini kamaytirishga yordam berdi. Bangladeshning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyati unga nafaqat yuqori

iqtisodiy o'sish sur'ati, balki ijtimoiy tengsizlik ko'lamini kamaytirish imkonini berdi.

Bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan aksariyat davlatlarda aholi daromadining tabaqlashtirilgan darajasi aholisining ta'limdan foydalanish sharoiti yomon bo'lgan mamlakatlarga qaraganda ancha past.

Ta'lim va aholi salomatligi. Ta'lim aholining salomatlik darajasi ko'rsatkichi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistondagi inson taraqqiyoti to'g'risidagi 2006 yilgi ma'ruzada «yaxshi ta'lim olgan aholi o'z salomatligiga nisbatan yaxshiroq yondashadi, profilaktika choralarini vaqtida qo'llaydi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yadi, vaqtida kasallikni aniqlashga, o'ziga-o'zi birinchi yordam ko'rsatishga, sifatli tibbiy yordam olishga qodir bo'ladi», deb ta'kidlangan.

Salomatlik darajasi yuqori bo'lgan aholining ish sharoiti ham, daromadi ham yaxshi bo'ladi. Demak, o'z vaqtida ko'rsatiladigan va yuksak malakali tibbiy xizmat haqini to'lash imkoniyatiga ham ega bo'lishini unutmaslik kerak. Bilim darajasining yuqoriligi va ilm-fanni rivojlantirish yuzaga keladigan epidemiya va pandemiyalarga yaxshiroq qarshilik ko'rsatish imkonini beradi.

Bilim darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda sil, o'tkir ichak infeksiyalari, bezgak, vabo, o'lat kabi ijtimoiy xavfli, tez tarqaladigan kasalliklar darajasi ancha past.

Xotin-qizlar bilim darajasining yuqoriligi tug'ish darajasini kamaytirishga yordam beradi. Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan sharoitda O'zbekiston uchun bu demografik muammolar, xotin-qizlar va bolalarning kamqonlik bilan kasallanish darajasini kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Buesa o'z navbatida, bolalar va onalar o'limini pasaytirishga olib keladi. Bilim darajasi yuqori bo'lgan ayollar tug'adigan bolalar odatda optimal vazniga ega bo'ladi, tug'ilishda xavf-xatar va o'sish davrida kasalliklarga kamroq duchor bo'ladi.

Ta'lim va gender tengligi. O'rta daromadli mamlakatlarda erkaklarning savodxonlik ko'rsatkichi xotin-qizlarnikiga qaraganda ancha yuqori bo'lsa, past daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich 1,3–1,5 ni tashkil qiladi. Dunyoning eng qashshoq mamlakatlarida erkaklarning savodxonlik darajasi xotin-qizlarga nisbatan ikki baravardan ortadi. Bundan tashqari shuni ta'kidlash joizki, 15–24 yoshli aholi yosh toifasidagi gender tafovuti garchi mavjud bo'lsa-da, uning darajasi ancha past, ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich nolga tenglashtirilgan.

O'zbekiston uchun aholi savodxonligida gender tafovuti masalasi unchalik dolzarb emas, chunki bu erda erkaklarning ham, xotin-qizlarning ham savodsizligi bir necha o'n yillar avval bartaraf etilgan.

Ta'lismi va demokratik jamiyatni rivojlantirish. Jamiyatdagi ta'lismi darajasi va aholiga berilgan erkinliklar darajasi o'rtaida bevosita bog'liqlik bor, deb hisoblanadi. Bu ma'lum darajada zamonaviy G'arbiy Evropaning deyarli barcha mamlakatlariga taalluqlidir. Ushbu davlatlarda ta'lismi darajasini rivojlantirish va kengaytirish demokratik erkinliklarni hamda aholining ulardan foydalanishini kengaytirish bilan bir paytda amalga oshirildi.

Shuningdek, ta'lismi darajasini oshirish, demokratiya va demokratik institutlarni rivojlantirish bir vaqtida amalga oshirilmaydigan jarayonlar ekanligini ko'rsatuvchi ko'plab tarixiy hamda zamonaviy misollar mavjud. Odatta, aholi bilim darajasini oshirish vaqt bo'yicha jamiyatni demokratlashtirish darajasini yuksaltirishdan ancha oldin amalga oshiriladi. Albatta, bilimsiz jamiyatda demokratiyanı erkinlashtirish va rivojlantirish mumkinligini tasavvur qilish qiyin. Biroq bilim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda ham demokratiyanı rivojlantirish avtomatik tarzda amalga oshiriladigan jarayon emas. Bilim darajasi tez o'sadigan jamiyatda, ayniqsa, ilgari demokratik institutlar va erkinliklar mavjud bo'Imagan jamiyatda demokratiyanı rivojlantirish ma'lum vaqt hamda katta kuch talab qiladi. Bu nafaqat ta'lismi, balki ko'proq aholining bilim darajasini oshirish kabi tez o'zgartirib bo'lmaydigan mentaliteti bilan bog'liqidir. Albatta, bilim olishdan foydalanishni kengaytirish va uning darajasini oshirish shart, ammo bu jamiyatni demokratlashtirishning yagona sharti emas.

Bilimli odamlar erkinlikni shunchaki qadrlamaydi va afzal ko'rmaydi. Muhimmi, ular erkinlik va demokratik qadriyatlardan jamiyat zarari emas, balki foydasi uchun foydalanadi. Aholida demokratik mentalitetni shakllantirish, uning demokratik institutlar va erkinlikka bo'lgan ehtiyoji uchun zarur davrni hatlab o'tishga urinish muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Shu tariqa, inson rivojlanishi konsepsiysi ta'limga muhim insoniy (individual va ijtimoiy) kapital sifatida ko'rib chiqar ekan, unga zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy muammolarini hal qilishda muhim o'rinn ajratadi.

Shu bilan birga tarixdan ma'lumki, ta'limga ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir darajasi uchta asosiy omilga bog'liqidir.

Birinchi omil — bu hukumatning ta'lismi va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan manfaatdorligi, siyosiy irodasi va qobiliyati. Qayd etilgan

jihatlarning har biri ta'limni rivojlantirishda hal qiluvchi o'ringa ega va buni ushbu sohani rivojlantirishda hukumatning roli deb atash mumkin, ya'ni agar bularning bittasi amalgalashmasa ham ta'limni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Hukumatning ta'limni rivojlantirishdan manfaatdorligi aholisi turmush darajasini oshirishga intilayotgan hokimiyatdagina namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'pincha boyish yoki o'z nafsoniyatini qondirishni ko'zlagan hokimiyat aholi bilim darajasini oshirishga sun'iy ravishda to'sqinlik qiladi. Afsuski, hukumat (hukmdorlar) aholining bilim olish imkoniyatini ongli ravishda cheklaganligi haqidagi misollarni nafaqat qadimiy yoki o'rta asr tarixidan bilamiz, balki buni hozirgi kunda ham kuzatish mumkin. Chalasavod va qashshoq aholini boshqarish oson. Bunday paradigma uzoq muddatli nuqtai nazardan qaraganda, mamlakat uchun ham, uning xalqi uchun ham falokatlidir.

Islohotlarni amalgalashmasa oshirish va keng ko'lamli ta'lim dasturlarini amalgalashmasa uchun manfaatdor bo'lishdan tashqari siyosiy irodaga ham ega bo'lish darkor. Mamlakat aholisining bilim darajasini oshirishdan manfaatdor bo'limgan tashqi va ichki kuchlar hukumatning siyosiy irodasiga qarshilik qilishi mumkin. Turli davlatlarda turli tarixiy davrlarda bunday to'siqlarni mutaassib din namoyandalari tashkil qilgan va hozir ham tashkil etadi. Bugungi kunda ham qator davlatlarda diniy aqidaparastlik jamiyatda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganiga oid misollar keltirish mumkin. Dunyoning aksariyat davlatlarida hukumatning siyosiy irodasiga ko'rsatiladigan ushbu salbiy ta'sirni bartaraf etish uchun din va uning institutlari faoliyati davlatdan ajratildi.

Hukumatning ta'lim sohasidagi islohotlar amalgalashmasi oshirilishini va aholining bilim olishdan keng foydalanishini ta'minlash salohiyati hukumat a'zolarining bilim saviyasi hamda davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq.

Ikkinci omil – bu ta'limdan aholi keng qatlaming foydalanish darajasi. Qadimgi sivilizatsiya mamlakatlari, shuningdek, Uyg'onish davri va ilk o'rta asrda Evropa hamda Markaziy Osiyo davlatlarida yangi era boshlanguncha ilm-fan va madaniyatning yuksalishi o'zining muayyan cheklanishiga ega bo'lgan. Buning sababi jamiyatning tor doiradagi, elita qismi yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgani tufayli taraqqiyot ham unga asoslanganidadir. Natijada o'sha davrning buyuk odamlarining kashfiyotlariga talab bo'lmadi. Negaki, jamiyat bu kashfiyotlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishga tayyor emasdi.

Aholining keng qatlami uchun ta'limdan foydalanish imkoniyatini yaratib bergen Evropa mamlakatlari, Osiyo va Amerikaning qator davlatlarida ta'lim tizimidagi islohotlar XX asrda ko'plab sanoat hamda ilmiy-texnika sohasidagi inqiloblarning asosiy sababiga aylandi.

Uchinchi omil — bu ta'lim sifati va uni inson faoliyati natijalariga aylantirish qobiliyati. Aholi savodxonligining yuqori darajasi aholi bilim

6.4. Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi

Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi o'rtasida juda katta bog'liqlik mavjud. Inson taraqqiyoti indeksida yuqori reytingga ega mamlakatda aholining ham juda yuqori turmush darajasi qayd etiladi. Misollarga murojaat qilsak. Reytingda eng yuqori pog'onani egallagan Norvegiyada aholi jon boshiga YAMM hajmi 2018 yilda 68059 AQSH dollarini tashkil etgan. Shuningdek, reytingda o'ta yuqori ITIga ega mamlakatlarning barchasida yuqori turmush darajasi qayd etilgan. Ayrimlarida esa o'ta yuqori turmush darajasining ko'rsatkichlarini qayd etilganligi e'tiborli. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkich Qatarda (110489 AQSH doll.), keyingi yuqori turmush darajasi Lixtenshteyn (99732), Singapur (83793)da qayd etilgan. Shuningdek, birinchi guruh 63 ta mamlakatning 40 tasida, yoki qariyb 65 foizida turmush darajasi ko'rsatkichi (aholi jon boshiga YAMM) 30 ming AQSH dollaridan yuqori bo'lgan.

Inson taraqqiyoti va turmush darajasi o'rtasidagi yaqindan bog'liqliknii yuqori ITIga ega mamlakatlar guruhida ham kuzatish mumkin. Mazkur guruhda turmush darajasi birinchi guruh mamlakatlariga nisbatan biroz past bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar nisbatan kichik yoki orol mamlakatlar hisoblanmish Trinidad va Tobago (28497), Sen-Kits va Nevis (26770), Mavrikiy (22724), Antigua va Barbuda (22201)da qayd etilgan. Shuningdek, ikkinchi guruh 53 ta mamlakatning 37 tasida, yoki qariyb 70 foizida turmush darajasi ko'rsatkichi (aholi jon boshiga YAMM) 10 ming AQSH dollaridan yuqori bo'lgan.

Inson taraqqiyoti va turmush darajasi o'rtasidagi yaqindan bog'liqlik qoidasi yoki tartibi qolgan ikki guruhda ham takrorlanadi va yuqoridagi tadqiqotlar natijasini tasdiqlaydi.

MDH mamlakatlarida qayd etilgan turmush darajasi ham inson taraqqiyoti bilan bog'likni o'zida aks ettiradi. Xususan, 25036 AQSH dollari ko'rsatkichi bilan Rossiya Federatsiyasi MDH mamlakatlari orasida etakchilik qiladi.

jihatlarning har biri ta'limni rivojlantirishda hal qiluvchi o'ringa ega va buni ushbu sohani rivojlantirishda hukumatning roli deb atash mumkin, ya'ni agar bularning bittasi amalga oshmasa ham ta'limni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Hukumatning ta'limni rivojlantirishdan manfaatdorligi aholisi turmush darajasini oshirishga intilayotgan hokimiyatdagina namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'pincha boyish yoki o'z nafsoniyatini qondirishni ko'zlagan hokimiyat aholi bilim darajasini oshirishga sun'iy ravishda to'sqinlik qiladi. Afsuski, hukumat (hukmdorlar) aholining bilim olish imkoniyatini ongli ravishda cheklaganligi haqidagi misollarni nafaqat qadimi yoki o'rtasr tarixidan bilamiz, balki buni hozirgi kunda ham kuzatish mumkin. Chalasavod va qashshoq aholini boshqarish oson. Bunday paradigma uzoq muddatli nuqtai nazardan qaraganda, mamlakat uchun ham, uning xalqi uchun ham falokatlidir.

Islohotlarni amalga oshirish va keng ko'lamli ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun manfaatdor bo'lishdan tashqari siyosiy irodaga ham ega bo'lism darkor. Mamlakat aholisining bilim darajasini oshirishdan manfaatdor bo'limgan tashqi va ichki kuchlar hukumatning siyosiy irodasiga qarshilik qilishi mumkin. Turli davlatlarda turli tarixiy davrlarda bunday to'siqlarni mutaassib din namoyandalari tashkil qilgan va hozir ham tashkil etadi. Bugungi kunda ham qator davlatlarda diniy aqidaparastlik jamiyatda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganiga oid misollar keltirish mumkin. Dunyoning aksariyat davlatlarida hukumatning siyosiy irodasiga ko'rsatiladigan ushbu salbiy ta'sirni bartaraf etish uchun din va uning instituti faoliyati davlatdan ajratildi.

Hukumatning ta'lim sohasidagi islohotlar amalga oshirilishini va aholining bilim olishdan keng foydalanishini ta'minlash salohiyati hukumat a'zolarining bilim saviyasi hamda davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq.

Ikkinci omil – bu ta'limdan aholi keng qatlaming foydalanish darajasi. Qadimgi sivilizatsiya mamlakatlari, shuningdek, Uyg'onish davri va ilk o'rta asrda Evropa hamda Markaziy Osiyo davlatlarida yangi era boshlanguncha ilm-fan va madaniyatning yuksalishi o'zining muayyan cheklanishiga ega bo'lgan. Buning sababi jamiyatning tor doiradagi, elita qismi yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgani tufayli taraqqiyot ham unga asoslanganidadir. Natijada o'sha davrning buyuk odamlarining kashfiyotlariga talab bo'lmadi. Negaki, jamiyat bu kashfiyotlarni qabul qilish va hayotga tatbiq etishga tayyor emasdi.

Aholining keng qatlami uchun ta'lidan foydalanish imkoniyatini yaratib bergen Evropa mamlakatlari, Osiyo va Amerikaning qator davlatlarida ta'lim tizimidagi islohotlar XX asrda ko'plab sanoat hamda ilmiy-texnika sohasidagi inqiloblarning asosiy sababiga aylandi.

Uchinchli omil — bu ta'lim sifati va uni inson faoliyati natijalariga aylantirish qobiliyati. Aholi savodxonligining yuqori darajasi aholi bilim

6.4. Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi

Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi o'rtaida juda katta bog'liqlik mavjud. Inson taraqqiyoti indeksida yuqori reytingga ega mamlakatda aholining ham juda yuqori turmush darajasi qayd etiladi. Misollarga murojaat qilsak. Reytingda eng yuqori pog'onani egallagan Norvegiyada aholi jon boshiga YAMM hajmi 2018 yilda 68059 AQSH dollarini tashkil etgan. Shuningdek, reytingda o'ta yuqori ITIga ega mamlakatlarning barchasida yuqori turmush darajasi qayd etilgan. Ayrimlarida esa o'ta yuqori turmush darajasining ko'rsatkichlarini qayd etilganligi e'tiborli. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkich Qatarda (110489 AQSH doll.), keyingi yuqori turmush darajasi Lixtenshteyn (99732), Singapur (83793)da qayd etilgan. Shuningdek, birinchi guruh 63 ta mamlakatning 40 tasida, yoki qariyb 65 foizida turmush darajasi ko'rsatkichi (aholi jon boshiga YAMM) 30 ming AQSH dollaridan yuqori bo'lgan.

Inson taraqqiyoti va turmush darajasi o'rtaidagi yaqindan bog'liqliknii yuqori ITIga ega mamlakatlar guruhida ham kuzatish mumkin. Mazkur guruhda turmush darajasi birinchi guruh mamlakatlariga nisbatan biroz past bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar nisbatan kichik yoki orol mamlakatlar hisoblanmish Trinidad va Tobago (28497), Sen-Kits va Nevis (26770), Mavrikiy (22724), Antigua va Barbuda (22201)da qayd etilgan. Shuningdek, ikkinchi guruh 53 ta mamlakatning 37 tasida, yoki qariyb 70 foizida turmush darajasi ko'rsatkichi (aholi jon boshiga YAMM) 10 ming AQSH dollaridan yuqori bo'lgan.

Inson taraqqiyoti va turmush darajasi o'rtaidagi yaqindan bog'liqlik qoidasi yoki tartibi qolgan ikki guruhda ham takrorlanadi va yuqoridagi tadqiqotlar natijasini tasdiqlaydi.

MDH mamlakatlarida qayd etilgan turmush darajasi ham inson taraqqiyoti bilan bog'likni o'zida aks ettiradi. Xususan, 25036 AQSH dollari ko'rsatkichi bilan Rossiya Federatsiyasi MDH mamlakatlari orasida etakchilik qiladi.

MDH mamlakatlarining inson taraqqiyoti indeksi va komponentlari tarkibi

		ITI qiymati	Tug'ilgan da kutilayot- gan umr davomiy- ligi	Ta'lanning kutilayotgan davomiy-ligi	Ta'lanning o'rtacha davomiy-ligi	Aholi jon boshiga YAMM, AQSH doll. 2011y XQP asosida	Aholi jon boshiga YAMM minus ITI reyingi	ITI reyingi
		2018	2018	2018a	2018	2018	2018	2017
O'ta yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar								
49	Rossiya	0,824	72,4	15,5	12,0	25036	2	49
50	Belarus	0,817	74,6	15,4	12,3	17039	18	50
50	Qozog'iston	0,817	73,2	15,3	11,8	22168	8	51
Yuqori darajali ITIga ega mamlakatlar								
81	Armaniston	0,76	74,9	13,2 e	11,8	9277	26	81
107	Moldova	0,711	71,8	11,6	11,6	6833	16	106
108	Turkmaniston	0,71	68,1	10,9 e	9,8	16407	-38	108
108	O'zbekiston	0,71	71,6	12	11,5	6462	18	109
O'rta darajali ITIga ega mamlakatlar								
122	Qirg'iziston	0,674	71,3	13,4	10,9	3317	30	122
125	Tojikiston	0,656	70,9	11,4 e	10,7	3482	26	126
	Jahon, o'rtacha	0,731	72,6	12,7	8,4	15745	-	-

Inson taraqqiyoti va turmush darajasi ko'rsatkichi muhim ekanligini O'zbekiston va Turkmaniston ko'rsatkichlarini solishtirganda yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, O'zbekistonning hayot davomiyligi va ta'lim bo'yicha ko'rsatkichlari Turkmanistondan ustun bo'lishiga qaramay, aholi jon boshiga YAMM ko'rsatkichidagi ustunlik bilan Turkmaniston O'zbekiston bilan teng inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichni ta'minlashga erishdi.

6.5. O'zbekistonda inson taraqqiyoti indeksini oshirish yo'llari

Inson taraqqiyoti indeksi komponentlaridan kelib chiqib, O'zbekistonning mazkur xalqaro indeksdagi o'rnnini oshirish uchun ucta yo'nalishda ishlarni tashkil etish nazarda tutiladi.

Birinchi yo'nalish, tibbiyot tizimi sifatini oshirish natijasida aholining hayot sifatini va o'z navbatida kutilayotgan umr davomiyligini oshirish.

Ikkinci yo'nalish ta'lim davomiyligi va sifatini oshirish.

Uchinchi yo'nalish aholi turmush darajasini, ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAMMni oshirish.

Bugungi kunda O'zbekiston birinchi va ikkinchi yo'naliishlarda nisbatan maksimal natijalarni qayd etgan va mazkur yo'naliishlardagi salohiyat nisbatan to'liq amalgalashirilgan. Bu yo'naliishlardagi o'zgarishlar odatda konservativ xarakterda bo'lib, odatda o'rta va uzoq istiqbolda o'zini namoyon etadi.

O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'mini oshirishning eng to'g'ri va tez yo'li aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAMM ko'rsatkichni ijobiy o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.

"O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi" loyihasida mamlakat Inson taraqqiyoti indeksi reytingini hozirgi egallagan darajadan 40-o'ringa ko'tarish proqnoz qilinmoqda. BMT Taraqqiyot dasturining 2019-yil dekabr oyida e'lon qilingan hisobotida O'zbekiston ushbu indeks reytingida 108-o'rinni egalladi. Bu degani, yaqin 10 yilda respublika mazkur reytingda 108-o'rindan 40-o'ringa, ya'ni 68 pog'onaga ko'tarilishi kerak.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiysi loyihasida proqnoz qilinganidek, 2030 yilga qadar mazkur reytingda 40-o'rinni egallah ko'zda tutilgan. Bu degani, inson taraqqiyotining juda yuqori ko'rsatkichiga ega davlatlar qatoridan o'rin olish taxmin qilinmoqda. Xo'sh, buning uchun qanday natijalarga erishish va qaysi mamlakatlar qatoridan o'rin olish kerak bo'ladi? Inson taraqqiyot indeksi yig'ma ko'rsatkich bo'lib, o'zida odamlarni yashash darajasining uchta tarkibiy qismini (umr davomiyligi, ta'lif sifati va farovonlik darajasi) o'z ichiga qamrab olgani sababli, aynan qaysi ko'rsatkich bo'yicha qanday natijaga erishish kerakligini bashorat qilish qiyin. Ammo, mazkur reytingda 35 dan 45 o'ringacha joy olgan mamlakatlar erishgan natijalarga qarab buni taxmin qilish mumkin.

Shuni taxmin qilish mumkin, mazkur maqsadga erishish uchun yaqin 10 yil ichida O'zbekistonda o'rtacha umr davomiyligi kamida 3,5 yilga uzayishi (71,6 yoshdan 75 yoshgacha) hamda aholi jon boshiga hisoblangan yalpi milliy daromad miqdori ham kamida 4 barobarga oshishi kerak.

Asosiy atamalar va tushunchalar

inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruza va milliy dastur, aholi turmush darajasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy tengsizlik.

O'zbekiston Inson taraqqiyoti indeksidagi ijobiy o'zgarishlarning asosi sifatida O'zbekistonda amalga oshirib kelinayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni ta'kidlash lozim. Xususan, o'tish davrida O'zbekiston hukumati real iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish orqali jadal iqtisodiy o'sish va mos ravishda aholi turmush darajasini keskin pasayishini oldini oldi va sezilarli yaxshilashga erishdi. Mamlakat ta'limgasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilib, kasbiy ta'limgasini joriy qilindi, ta'limga ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar salmog'ining davlat byudjetidagi ulushining sezilarli oshirildi. Mamlakat bo'ylab chekka qishloqlargacha tibbiyat muassasalari (qishloq vrachlik punktlari)ni ochilishi, homilador ayollar sog'ligini monitoringini yo'lga qo'yilishi, bola oziqlanishi dasturlari va boshqa yangiliklar keng aholi qatlamlarining sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi farovonligini oshishi turmush tarzida ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotganligiga qaramay ta'limgasini tizimini munosib rivojlanish darajasini ta'minlashga harakat qilayotgan O'zbekiston munosib ravishda yuqori ITI mamlakatlar guruhidan o'rinni oldi.

Biroq, O'zbekistonning ITI bo'yicha salohiyati hali to'laligicha ochilmagan va keyingi yillarda ayrim pozitsiyalar bo'yicha oqsoqlanish kuzatilmoqda. Ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag'lar ulushini va aholi turmush darajasini muntazam oshirib borish O'zbekistonning ITIgi o'rnni yanada oshirish uchun asos bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksidagi o'rning ijobiy tomonga o'zgarish sabab va omillari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha tayyorlangan milliy ma'ruzalar va milliy dasturlarning mavzulari qaysi sohalarga bag'ishlangan edi?
3. Nima sababdan milliy ma'ruzalar va milliy dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti to'xtatildi?
4. Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Ta'limgasini sifatining inson taraqqiyoti indeksiga ta'siri qanday?

6. O'zbekistonda inson taraqqiyoti indeksini oshirish uchun qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4047-son Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 8 fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4210-sonli qarori.
<http://www.lex.uz/docs/4215422>
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
4. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.
5. Шваб, Клаус. Технологии Четвертой промышленной революции: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис. – Москва: Эксмо, 2018. – 320 с.
6. The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org
7. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz
8. Бородин К.Г. Теории международной торговли и торговая политика. Российский внешнеэкономический вестник. № 1 (Январь) 2006. С.9-18.
9. Дик А., Гуринов Е. Оценка международной конкурентоспособности стран по методике Всемирного экономического форума. Наука и инновации №11 (128) Ноябрь 2013. С.27-31.
10. Козырь Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.
11. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюллетень Міжнародного

12. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография: в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.

13. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.

14. <https://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

7-MAVZU. MDH MAMLAKATLARIDA IQTISODIY ERKINLIK INDEKSI

7.1. Iqtisodiy erkinlik indeksining mohiyati va uni tashkil etuvchi indikatorlari tavsifi

7.2. MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rning qiyosiy tahlili

7.3. MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksidagi mavqeini oshirish istiqbollari

7.1. Iqtisodiy erkinlik indeksining mohiyati va uni tashkil etuvchi indikatorlari tavsifi

Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of Economic Freedom) va davlatlarning iqtisodiy erkinlik darajasi bo'yicha har yillik reytingi (Economic freedom ranking) AQSHning Heritage Foundation ("Me'ros" jag'armasi) tadqiqot markazi tomonidan Wall Street Journal bilan hamkorlikda 1995 yildan tayyorlanib kelinadi va nashr qilinadi.

Indeks mualliflarining bergen ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy erkinlik bu har bir shaxsning o'z mehnati va mulkiga mutlaq egalik qilish huquqidir. Iqtisodiy erkinlik hukm surgan jamiyatda insonlar erkin ravishda ishslash, mahsulot yaratish, iste'mol va investitsiya qila oladilar. Bunday jamiyatda hukumat mehnat, kapital va tovarlar bozorlarini erkin amal qilishini ta'minlaydilar va ushbu erkinliklarni cheklashdan o'zlarini tiyib turadilar.

Mamlakatlар reytingi Iqtisodiy erkinlik indeksi (IEI) asosida o'rnatiladi. Iqtisodiy erkinlik indeksi 1 dan 100 gacha bo'lgan raqamli baho bo'lib, alohida olingan davlatda ta'minlanayotgan iqtisodiy erkinlik darajasini aks ettiradi. Indeks qiymati qancha yirik bo'lsa, ushbu davlat shunchalik erkin hisoblanadi.

Jamg'arma ekspertlarining fikriga ko'ra, iqtisodiy farovonlik bilan indeks asosida baholangan iqtisodiy erkinlik o'rtasida kuchli korrelyasiya bog'liqligi kuzatiladi.

Iqtisodiy erkinlik indeksini baholashda qo'llaniladigan 12 ta tarkibdan iborat indikatorlar iqtisodiy erkinlikning to'rt o'lchamini aniqlashga qaratilgan to'rtta guruhga biriktirilgan:

- I. Qonun ustuvorligi (Rule of Law) guruhi.
- II. Davlat hajmi (Government Size) guruhi.

III. Regulyativ (tartibga solish) samaradorligi (Regulatory Efficiency) guruhi.

IV. Bozor ochiqligi (Market Openness) guruhi.

Quyida har bir yig'ma indikator tarkibiga kiruvchi subindikatorlar keltirilgan:

Qonun ustuvorligi (Rule of Law) guruhi ko'rsatkichlari:

1. Mulkka egalik huquqini himoya qilish;
2. Sud tizimining samaradorligi;
3. Davlat xizmatchilarining etikasi;

Davlat hajmi (Government Size) guruhi:

4. Soliq yuki hajmi;
5. Davlat xarajatlari hajmi;
6. Fiskal salomatlik;

Regulyativ (tartibga solish) samaradorligi (Regulatory Efficiency) guruhi:

7. Biznes erkinligi;
8. Mehnat munosabatlari erkinligi;
9. Monetar erkinlik;
10. Savdo erkinligi;
11. Investitsiyalar erkinligi;
12. Moliya erkinligi.

7.1-jadval

Iqtisodiy erkinlik yig'ma indikatorining tarkibi¹⁵

Qonun ustuvorligi (Rule of Law)	Davlat hajmi (Government Size)	Regulyativ samaradorlik (Regulatory Efficiency)	Bozor ochiqligi (Market Openness)
<ol style="list-style-type: none">1. Mulkka egalik huquqini himoya qilish2. Sud tizimining samaradorligi3. Davlat xizmatchilarining etikasi	<ol style="list-style-type: none">1. Soliq yuki hajmi2. Davlat xarajatlari hajmi3. Fiskal salomatlik	<ol style="list-style-type: none">1. Biznes erkinligi2. Mehnat munosabatlari erkinligi3. Monetar erkinlik	<ol style="list-style-type: none">1. Savdo erkinligi2. Investitsiyalar erkinligi3. Moliya erkinligi

"Mulkka egalik huquqini himoya qilish" indikatori shaxslarning xususiy mulkga egalik qilish, undan foydalanish va boshqarish huquqlari davlat tomonidan qaysi darajada himoya etilishiga baho beriladi. O'z

¹⁵ <https://www.heritage.org/>

navbatida, ushbu masala samarali qonunchilik va uni amalga oshirish mexanizmi mavjudligiga chambarchas bog‘liqdir.

“Sud tizimining samaradorligi” indikatori. YAxshi ishlaydigan sud tizimi fuqarolar huquqlarini boshqa shaxslarning, shu jumladan davlat va lobbistlarning noqonuniy hatti-harakatlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Sud tizimining samaradorligini baholashda bir xil kuchga ega bo‘lgan uchta subindekatorlardan foydalilanadi: sud tizimining mustaqilligi; sud jarayonining samaradorligi; davlat xizmatchilarining qabul qilgan qarorlarida favoritizm.

“Davlat xizmatchilarining etikasi” indikatori. Korrupsiya iqtisodiy erkinlik asosiga putur etkazadi va iqtisodiy munosabatlarga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Jamiyatda poraxurlik, qarindoshurug‘chilik, talon-tarojlik va boshqa illatlarni kengayishiga olib keladi.

“Soliq yuki hajmi” indikatori. Yuqori stavkali soliqlar “soyadagi” iqtisodiyotning hajmini oshishiga olib keladi. soliq yukini hajmi quyidagi subindikatorlar bilan baholanadi: jismoniy shaxslar daromad solig‘ining maksimal chegaraviy stavkasi, korporativ foyda solig‘ining maksimal chegaraviy stavkasi, YAMMga nisbatan umumiyligini soliq yuki.

“Davlat xarajatlari hajmi” indikatori. Davlat sektori hajmi va ko‘laming oshishi resurslarni oqilona taqsimlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi va o‘z navbatida davlat xarajatlarini oshib borishiga olib keladi.

“Fiskal salomatlik” indikatori. Byudjet xarajatlarini yomon boshqarish byudjet kamomadi va qarzdorlik yukini keltirib chiqargan holda mamlakatning umumiyligini viy ahvolining yomonlashuviga olib keladi.

“Biznes erkinligi” indikatori. Mazkur yig‘ma indikator qonunchilik va infrastruktura muhiti tomonidan biznesning samarali faoliyatini cheklovchi ta’sir darajasini ulchaydi. Ushbu yig‘ma indikatorda Jahon Bankining “Biznesni yuritish” xalqaro reytingida qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardan 13 ta subindikator shaklida qo‘llaniladi.

“Mehnat munosabatlari erkinligi” indikatori. Ushbu yig‘ma indikator mehnat bozorini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani o‘lchaydi va unga baho beradi. Asosiy e’tibor ishchi xodimlarning mehnat huquqlarini qonunchilik tomonidan qanchalik himoyalanganligiga qaratiladi.

“Monetar erkinlik” indikatori. Mazkur indikator o‘zida narxlar barqarorligi va narxlar nazorati masalalarini mujassam etadi. Inflyasiya va narx nazorati bozorning faolligini buzib ko‘rsatadi.

“Savdo erkinligi” indikatori tovarlar va xizmatlar importi va eksportiga ta’sir ko’rsatuvchi tarif va notarif barerlar darajasini o’lchashga mo’ljallangandir.

“Investitsiyalar erkinligi” indikatori. Iqtisodiyoti erkin mamlakatda investitsiyalarga hech qanday cheklovlar joriy etilmaydi. Biroq, amalda ko’pchilik davlatlarda investitsiyalarga nisbatan turli cheklovlar qo’llaniladi. Misol uchun turli qonunchilikni qo’llash, valyutaga cheklovlar kiritish, ayrim tarmoqlarni investitsiyalar uchun yopish va boshqalar. Mazkur indikator investitsiyalarga qo’llanilayotgan cheklovlarini baholaydi.

“Moliya erkinligi” indikatori bank samaradorligi ko’rsatkichi bo’lib, davlatning moliyaviy sektorga aralashuvidan mustaqillik darajasini baholaydi.

Yakuniy indikatorning hisoblanishi va ma’lumotlar manbalari. Yuqorida sanalgan barcha indikatorlar o’zining hisoblash usuliga ega va 0 dan tortib 100 gacha bo’lgan shkalada o’lchanadi. Odatda, indikatorlar yakunlangan yilning o’talaridagi holatda mayjud bo’lgan ma’lumotlar asosida hisoblanadi. Hisob-kitoblarda Butunjahon iqtisodiy forumi, Xalqaro valyuta jamg’armasi, “The Economist Intelligence Unit”, “Transparence International” tomonidan to’lanadigan ma’lumotlardan foydalaniлади. Iqtisodiy erkinlikning yakuniy indeksi 12 ta tarkibiy indikatorning o’rtacha arifmetik qiymati ko’rinishida hisoblanadi. Shuningdek, jahon mamlakatlari reytingdagi egallagan o’rinlariga qarab quyidagi guruhlarga taqsimlanadi: erkin, asosan erkin, o’rtacha erkin, asosan erkin emas, va erkin emas.

Iqtisodiy erkinlik indeksi interaktiv foydalanuvchilar uchun ochiq ma’lumot sifatida “Heritage Foundation” tashkilotining <https://www.heritage.org/> veb sahifasida chop etib boriladi. O’quvchilar mamlakatlar va mamlakatlar guruhlari to’g’risida 20 yillik kuzatuvlarni o’z ichiga olgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishishlari mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari orqali mamlakat va guruhlardagi iqtisodiy erkinlikning dinamikasi, amalakatlarning ushbu ko’rsatkich bo’yicha qiyoslanishi grafik, xarita va boshqa ko’rgazmali shakllarda taqdim etilgan.

Reytingga jalb etilgan barcha 180 ta mamlakat bo’yicha 12 ta yig’ma indikatorlar ko’rsatkichlari qiymatlarini o’z ichiga olgan batafsil ma’lumotlar keltiriladi. Har bir mamlakatning iqtisodiy erkinlik profili yaratilib yillik tahsiliy ma’ruzada chop etib boriladi. Shuningdek, har bir mamlakat bo’yicha statistik ma’lumotlar bilan birga uning kuchli va

kuchsiz tomonlariga batafsil baho beriladi. Ma'lumotlar konkret yil va dinamik qatorlarda berib boriladi.

Tashkilot veb sahifasida shuning bilan birga mamlakatlar guruhlarining xususiyatlari, iqtisodiy erkinlik bo'yicha erishilgan ijobiy tendensiylar, salbiy amaliyot va ularning sabablari o'rganilib tahliliy natijalari e'lon qilib boriladi.

7.2-jadval

2020 yilda Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha mamlakatlar reytingi¹⁶

Reyting	Mamlakat	indeks	o'zgarish	Reyting	Mamlakat	indeks	o'zgarish
Erkin mamlakatlar (100-80)							
1	Singapore	89.4	0.0	4	Australia	82.6	+1.7
2	Hong Kong	89.1	-1.1	5	Switzerland	82.0	+0.1
3	New Zealand	84.1	-0.3	6	Ireland	80.9	+0.4
Asoasan erkin mamlakatlar (79.9-70)							
7	United Kingdom	79.3	+0.4	23	Czech Republic	74.8	+1.1
8	Denmark	78.3	+1.6	24	Malaysia	74.7	+0.7
9	Canada	78.2	+0.5	25	South Korea	74.0	+1.7
10	Estonia	77.7	+1.1	26	Israel	74.0	+1.2
11	Taiwan	77.1	-0.2	27	Germany	73.5	0.0
12	Georgia	77.1	+1.2	28	Norway	73.4	+0.4
13	Iceland	77.1	0.0	29	Austria	73.3	+1.3
14	Netherlands	77.0	+0.2	30	Japan	73.3	+1.2
15	Chile	76.8	+1.4	31	Qatar	72.3	-0.3
16	Lithuania	76.7	+2.5	32	Latvia	71.9	+1.5
17	United States	76.6	-0.2	33	Rwanda	70.9	-0.2
18	United Arab Emirates	76.2	-1.4	34	Armenia	70.6	+2.9
19	Luxembourg	75.8	-0.1	35	Macau	70.3	-0.7
20	Finland	75.7	+0.8	36	Bulgaria	70.2	+1.2
21	Mauritius	74.9	+1.9	37	Cyprus	70.1	+2.0
22	Sweden						
O'rtacha erkin mamlakatlar (69.9-60)							
38	Romania	69.7	+1.1	69	The Bahamas	64.5	+1.6
39	Kazakhstan	69.6	+4.2	70	Philippines	64.5	+0.7
40	Botswana	69.6	+0.1	71	Turkey	64.4	-0.2
41	North Macedonia	69.5	-1.6	72	Seychelles	64.3	+2.9
42	Malta	69.5	+0.9	73	Guatemala	64.0	+1.4
43	Thailand	69.4	+1.1	74	Italy	63.8	+1.6
44	Azerbaijan	69.3	+3.9	75	Oman	63.6	+2.6
45	Colombia	69.2	+1.9	76	Cabo Verde	63.6	+0.5
46	Poland	69.1	+1.3	77	Fiji	63.4	+1.2
47	Uruguay	69.1	+0.5	78	Morocco	63.3	+0.4
48	Belgium	68.9	+1.6	79	Kuwait	63.2	+2.4
49	Jamaica	68.5	-0.1	80	Paraguay	63.0	+1.2

¹⁶ <https://www.heritage.org/>

50	Saint Lucia	68.2	-0.5		81	Kyrgyz Republic	62.9	+0.6
51	Peru	67.9	+0.1		82	Bosnia and Herzegovina	62.6	+0.7
52	Slovenia	67.8	+2.3		83	Saudi Arabia	62.4	+1.7
53	Kosovo	67.4	+0.4		84	Croatia	62.2	+0.8
54	Indonesia	67.2	+1.4		85	Bhutan	62.1	-0.8
55	Panama	67.2	0.0		86	Samoa	62.1	-0.1
56	Portugal	67.0	+1.7		87	Moldova	62.0	+2.9
57	Albania	66.9	+0.4		88	Belarus	61.7	+3.8
58	Spain	66.9	+1.2		89	Tanzania	61.7	+1.5
59	Saint Vincent and the Grenadines	66.8	+1.0		90	El Salvador	61.6	-0.2
60	Slovakia	66.8	+1.8		91	Montenegro	61.5	+1.0
61	Brunei Darussalam	66.6	+1.5		92	Barbados	61.4	-3.3
62	Hungary	66.4	+1.4		93	Honduras	61.1	+0.9
63	Bahrain	66.3	-0.1		94	Russia	61.0	+2.1
64	France	66.0	+2.2		95	Dominican Republic	60.9	-0.1
65	Serbia	66.0	+2.1		96	Namibia	60.9	+2.2
66	Jordan	66.0	-0.5		97	Dominica	60.8	-2.8
67	Mexico	66.0	+1.3		98	Vanuatu	60.7	+4.3
68	Costa Rica	65.8	+0.5		99	Madagascar	60.5	+3.9

Asosan erkin emas mamlakatlar (59.9-50)

100	Greece	59.9	+2.2		131	Eswatini	55.3	+0.6
101	Côte d'Ivoire	59.7	-2.7		132	Kenya	55.3	+0.2
102	Uganda	59.5	-0.2		133	Benin	55.2	-0.1
103	China	59.5	+1.1		134	Ukraine	54.9	+2.6
104	Ghana	59.4	+1.9		135	Pakistan	54.8	-0.2
105	Vietnam	58.8	+3.5		136	Afghanistan	54.7	+3.2
106	South Africa	58.8	+0.5		137	Niger	54.7	+3.1
107	Tonga	58.8	+1.1		138	Lesotho	54.5	+1.4
108	Papua New Guinea	58.4	0.0		139	Nepal	54.2	+0.4
109	Trinidad and Tobago	58.3	+1.3		140	Togo	54.1	+3.8
110	Senegal	58.0	+1.7		141	Burma	54.0	+0.4
111	Belize	57.4	+2.0		142	Egypt	54.0	+1.5
112	Sri Lanka	57.4	+1.0		143	Comoros	53.7	-1.7
113	Cambodia	57.3	-0.5		144	Brazil	53.7	+1.8
114	Uzbekistan	57.2	+3.9		145	Cameroon	53.6	+1.2
115	Nicaragua	57.2	-0.5		146	Ethiopia	53.6	0.0
116	Nigeria	57.2	-0.1		147	Zambia	53.5	-0.1
117	Burkina Faso	56.7	-2.7		148	Guinea-Bissau	53.3	-0.7
118	Gabon	56.7	+0.4		149	Argentina	53.1	+0.9
119	Maldives	56.5	+3.3		150	Solomon Islands	52.9	-1.7
120	India	56.5	+1.3		151	Djibouti	52.9	+5.8
121	Guinea	56.5	+0.8		152	Malawi	52.8	+1.4
122	Bangladesh	56.4	+0.8		153	Haiti	52.3	-0.4
123	The Gambia	56.3	+3.9		154	Angola	52.2	+1.6
124	Guyana	56.2	-0.6		155	Tajikistan	52.2	-3.4
125	São Tomé and Príncipe	56.2	+2.2		156	Micronesia	52.0	+0.1
126	Mali	55.9	-2.2		157	Lebanon	51.7	+0.6

127	Mongolia	55.9	+0.5	158	Ecuador	51.3	+4.4
128	Tunisia	55.8	+0.4	159	Central African Republic	50.7	+1.6
129	Laos	55.5	-1.9	160	Mozambique	50.5	+1.9
130	Mauritania	55.3	-0.4	161	Chad	50.2	+0.3
Erkin bo'Imagan mamlakatlar (49.9-0)							
162	Democratic Republic of Congo	49.5	-0.8	172	Kiribati	45.2	-2.1
163	Suriname	49.5	+1.4	173	Sudan	45.0	-2.7
164	Iran	49.2	-1.9	174	Zimbabwe	43.1	+2.7
165	Liberia	49.0	-0.7	175	Bolivia	42.8	+0.5
166	Burundi	49.0	+0.1	176	Republic of Congo	41.8	+2.1
167	Equatorial Guinea	48.3	+7.3	177	Eritrea	38.5	-0.4
168	Sierra Leone	48.0	+0.5	178	Cuba	26.9	-0.9
169	Algeria	46.9	+0.7	179	Venezuela	25.2	-0.7
170	Turkmenistan	46.5	-1.9	180	North Korea	4.2	-1.7
171	Timor-Leste	45.9	+1.7				

2020 yilda Iqtisodiy erkinlik indeksi reytingi bo'yicha to'liq, hech qanday cheklvlarsiz erkin davlat sifatida 80 dan 100 gacha indeks ko'rsatkichiga ega 6 ta mamlakat: Singapur, Gon Kong, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Shveysariya va Irlandiya tan olingen.

Shuning bilan birga, reyting ma'lumotlarda yuqori pog'onalarda asosan rivojlangan davlatlar o'rinni olganligini ko'rish mumkin. Bundan ko'rindaniki, rivojlangan mamlakatlardagi qonun ustuvorligi, biznes faoliyatining mustaqil sud tizimi orqali samarali himoyalanishi, soliq va moliya sohasidagi aniq va barqaror tendensiyalar o'z samarasini berib ushbu mamlakatlarning reyting tizimidagi yuqori o'rinnarni egallashlarini ta'minlagan.

Reytingning quyi pog'onasidan, erkin bo'Imagan davlatlar guruhidan o'rinni olgan mamlakatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan diktatorlik, yakka hokimlik hukm surayotgan yoki fuqarolik urushlari va mintaqaviy tuqnashuvlar iskanjasida qolgan mamlakatlarni ko'rishimiz mumkin.

7.2. MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rning qiyosiy tahlili

MDH mamlakatlarining "Heritage Foundation" tomonidan yuritilayotgan Iqtisodiy erkinlik indeksi yuqori baholanmaydi va turli mamlakatlar guruhi bo'yicha notekis taqsimlangan. Jamg'arma tomonidan 2020 yilda e'lon qilingan Iqtisodiy erkinliklar indeksining erkin

mamlakatlar guruhidan MDHning birorta ham mamlakati o'rin ola olmagan.

7.3-jadval

MDH mamlakatlarining Iqtisodiy erkinlik indeksidagi reytingi va komponentlari kesimida baholanishi¹⁷

Reyting	Mamlakat	Iqtisodiy erkinlik indeksi	Asosan erkin mamlakatlar (79.9-70)											
			Mulkka egallik huquqini himoya qilish	Sud tizimining samaradorligi	Davlat xizmatchilarining etkasi	Soliq yuki hajmi	Davlat xarjatlari hajmi	Fiskal salomatlik	Biznes erkinligi	Mehnat munosabatlari erkinligi	Monetary erkinlik	Savdo erkinligi	Investitsiyalar erkinligi	Moliya erkinligi
		Qonun ustuvorligi (Rule of Law)			Davlat hajmi (Government Size)			Regulyativ samaradorlik (Regulatory Efficiency)			Bozor ochiqligi (Market Openness)			
34	Armaniston	70.6	60.7	54.1	43.4	84.9	80.6	68.8	81.0	72.5	76.0	80.6	75.0	70.0
O'rtacha erkin mamlakatlar (69.9-60)														
39	Qozog'iston	69.6	61.3	62.1	40.9	92.3	85.5	84.1	74.6	86.0	68.1	80.2	50.0	50.0
44	Ozarbayjon	69.3	67.1	53.9	38.7	88.0	63.0	99.2	80.8	66.2	69.8	74.6	70.0	60.0
81	Qirg'iziston	62.9	53.6	31.3	32.0	94.1	58.5	66.7	73.6	79.6	76.4	79.2	60.0	50.0
87	Moldova	62.0	60.5	31.7	37.2	86.1	71.6	96.2	68.1	37.0	72.0	78.0	55.0	50.0
88	Belarus	61.7	63.2	48.4	37.4	88.8	54.1	95.4	76.4	74.8	69.8	82.0	30.0	20.0
94	Rossiya	61.0	56.8	44.4	41.3	88.5	63.8	98.7	80.2	52.1	68.2	77.8	30.0	30.0
Asosan erkin bo'Imagan mamlakatlar (59.9-50)														
114	O'zbekiston	57.2	59.1	34.2	28.2	91.6	74.7	98.9	72.6	59.9	59.9	67.6	20.0	20.0
155	Tojikiston	52.2	49.1	50.0	32.0	91.8	62.3	26.0	65.9	47.7	71.0	75.0	25.0	30.0
Erkin bo'Imagan mamlakatlar (49.9-0)														
170	Turkmaniston	46.5	20	20.0	21.4	95.9	93.1	94.5	30.0	20.0	68.7	74.2	10.0	10.0

Biroq MDH mamlakatlarning Iqtisodiy erkinlik indeksidagi ijobiy ishtirokini alohida qayd etish lozim. MDH mamlakatlarining biznes va tadbirdorlik faoliyatini soddalashtirish, ro'yxatga olish jarayonlaridagi to'siqlarni olib tashlash, qonunchilik, sud-huquq tizimi, mulk munosabatlarini mustahkamlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish, soliq, moliya sohalarida sodda va aniq o'yin qoidalarini joriy etish, xorijiy va milliy investorlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar o'z mevasini bermoqda, ularning Iqtisodiy erkinlik indeksida va reytingidagi o'rinnari yildan-yilga o'sib bormoqda.

Iqtisodiy erkinlik indeksining asosan erkin mamlakatlar guruhidan faqatgina bir mamlakat – Armaniston (34 o'rinn) o'rinn egallagan. MDHning

¹⁷ <https://www.heritage.org/>

aksariyat mamlakatlari, xususan 6 ta mamlakati: Qozog'iston (39 o'rinn), Ozarbayjon (44), Qirg'iziston (81), Moldova (87), Belarus (88) va Rossiya Federatsiyalari (94) O'rtacha erkin mamlakatlar guruhidan o'rinn olishgan.

O'zbekiston (114 o'rinn) va Tojikiston (155) asosan erkin bo'limgan mamlakatlar guruhidan joy egallashgan.

O'zbekiston va Tojikistondan tashqari barcha MDH mamlakatlari ijobjiy baholanuvchi mamlakatlar guruhiga mansub va iqtisodiy-siyosiy islohotlar natijasida qisqa muddatlarda yuqori guruhlarga chiqish salohiyatiga ega. Asosan erkin bo'lmafan deb baholangan O'zbekiston va Tojikistonning iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rni, ayrim komponentlardagi erishilgan baholash ko'rsatkichlari ancha past bo'lib, jahon reytingidagi quyi o'rinnlarini navbatdagi yuqori guruhga olib chiqishlari uchun keskin iqtisodiy-islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

7.3. MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksidagi mavqeimi oshirish istiqbollari

MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksida bugungi kunda egallab turgan o'rinnlari va mavqelarini oshirish uchun avvalo indeksning komponentlar kesimidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratgan holda mavjud salohiyatlarni aniqlagan holda MDH mamlakatlarining istiqbollariga baho bersak.

Birinidan, Iqtisodiy erkinlik indeksining qonun ustuvorligi komponentida MDH mamlakatlarining ko'rsatkichlari nisbatan pastligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida barcha MDH mamlakatlariga xos bo'lgan mulkning deyarli himoyalanmaganligidir. Bugungi kunda MDH mamlakatlarida mulkni siyosiy va boshqa sabablarga ko'ra davlat yoki siyosiy va iqtisodiy guruhlar tomonidan olib qo'yilish holatlari amaliyotda ko'plab uchraydi. Shuning bilan birga qonunchilikni qo'llashda izchillik etishmaydi, siyosiy tayziq darajasi yuqoriligidcha qolmoqda. Korrupsiya va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi yuqori baholanadi.

Demak, qonunchilik ustuvorligi komponenti bilan bog'liq fundamental islohotlar va o'zgarishlarni amalga oshirish orqali MDH mamlakatlarining reytingdagi mavqelarini o'zgartirish salohiyati boshqa komponentlarga qaraganda yuqori ekanligini ta'kidlash lozim.

Ikkinchidan, davlat hajmi komponenti sohasida MDH mamlakatlarining barchasi ancha yuqori natijalarni qayd etishgan va ushbu natijalar o‘z navbatida yakuniy indeksning ijobiy o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatgan. Buning asosiy sababi sifatida soliq stavkalari va soliq yukini pasaytirilganligi va natijada davlat xarajatlarining hajmini kamayganligini ta’kidlash lozim. Shuningdek, soliq to‘lovlarini to‘lash jarayonida inson omilini kamayishi, raqamli texnologiyalarni qo‘llanishi ham ijobiy bo‘lib, ushbu komponent bo‘yicha MDH mamlakatlari o‘z salohiyatlaridan maksimal darajada foydalanoqdalar deyig mumkin.

Uchinchidan, reguliyativ (tartibga solish) samaradorligi MDH mamlakatlarida an'anaviy tarzda pastligicha qolmoqda. Xususan, byurokratik jarayonlarning biznes erkinligini cheklashdagi o‘rnii yuqoriligidagi qolmoqda. Mehnat munosabatlarida ham ijobiy siljish kam bo‘lib, ish beruvchining mavqeい va ta’siri yuqori baholanadi. Shuningdek, narxlar nazorati va barqarorligi bo‘yicha ham birorta MDH mamlakatini na’muna sifatida ko‘rsatib bo‘lmaydi. MDH mamlakatlarida narxлarni nazoratga olish ko‘lami yuqori bo‘lib, inflyasiya darajasi barqaror moliya tizimiga ega mamlakatlar darajasiga etmagan.

To‘rtinchidan, Bozor erkinligi indikatori bo‘yicha MDH mamlakatlarida ahvol o‘ta yomonligicha qolmoqda va mos ravishda past baholangan. Xususan, savdo erkinligi komponenti yo‘nalishida MDH mamlakatlarida tarif va notarif bojxona to‘sinqaridan ko‘plab foydalib kelinadi. Shuningdek, bojxona tariflarining darajalari ham yuqori saqlangan holda ayrim sohalar bo‘yicha ochiqdan-ochiq o‘ta yuqori darajadagi proteksion stavkalar joriy etilgan. Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘limgan notarif cheklovlar bekor etilmagan va ko‘plab hollarda qo‘llash amaliyoti mavjud.

Investitsiyalar erkinligi ko‘rsatkichi MDH mamlakatlarining deyarli barchasida o‘ta past baholangan. Investitsiyalar sohasida cheklovlar, qonunchilikdagi tez-tez uchraydigan o‘zgarishlar, tarmoq chelovlari va davlat korxonalarining ustuvorligi xorijiy investitsiyalarining kirib kelishini cheklaydi. Natijada, MDH mamlakatlari xorij investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha ulkan salohiyatga ega bo‘lishlariga qaramay yuqori siyosiy, iqtisodiy va boshqa xatarlar sabab investitsiyalarini jalb etishda boshqa mintaqalardan ortda qolmoqdar. MDH mamlakatlarining moliya bozorlarida davlat moliya institutlarining mavqeい utuvorligicha qolmoqda. Asosiy resurslar davlat mulki tashkilotlarida jamlangan, xususiy moliya institutlarining ulushi va mavqeい o‘ta pastligicha qolmoqda. Natijada moliya erkinligi indikatori bo‘yicha MDH mamlakatlarining ko‘rsatkichi

barcha boshqa indikator qiymatlaridan past darajada qayd etilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bozorlar ochiqligi indikatori bo'yicha MDH mamlakatlari ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash va natijada yakuniy reytingdagi mavqeini sezilarli ko'tarish uchun ulkan salohiyat mavjud. Xususan, moliya institutlarini xususiy lashtirish, savdoda notarif cheklovlardan to'liq voz kechish, xorijiy investorlar uchun jozibador shart-sharoitlar va barqaror institutsional tartiblarni izchil, qisqa muddatlarda va samarali joriy etish mazkur yo'nalishda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MDH mamlakatlarining iqtisodiy erkinlik indeksi bilan bog'liq holat va istiqbollari deyarli bir xil yoki o'xshashligini ta'kidlash joiz. Barcha mamlakatlarda korrupsiya va byurokratiya tizimining biznes muhitga ta'siri yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Iqtisodiy islohotlar sur'ati pastligicha qolmoqda. Jahon bozorlarida kuzatilayotgan inqirozlar sharoitida tashqi bozordan yopilish, to'siqlar joriy etish va proteksion siyosatga qaytish holatlari tez-tez uchramoqda. Iqtisodiy erkinlikning himoyachisi hisoblangan sud tizimining mustaqilligi barcha MDH mamlakatlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tendensiyalarning qisqa va o'rta istiqbolda saqlanib qolishini e'tiborga olib MDH mamlakatlarining Iqtisodiy erkinlik indeksidagi va reytingidagi o'rinarini ijobiy tomonga juda sekinlikda o'zgarib borishini proqnoz qilish mumkin. Shuning bilan birga, keskin iqtisodiy islohotlar va siyosiy iroda ta'sirida har bir MDH mamlakatining IEI reytingidagi o'mini sezilarli oshirish imkoniyati yuqori ekanligin ta'kidlash mumkin.

Asosiy atamalar va tushunchalar

iqtisodiy erkinlik indeksi, bozor ochiqligi, reguliyativ samaradorlik, qonun ustuvorligi, davlat hajmi, yig'ma indikator.

Qisqacha xulosa

Iqtisodiy erkinlik indeksi va davlatlarning iqtisodiy erkinlik darajasi bo'yicha har yillik reytingi AQSHning Heritage Foundation tadqiqot markazi tomonidan Wall Street Journal hamkorlikda 1995 yildan nashr qilinib kelinadi. Iqtisodiy erkinlik bu har bir shaxsning o'z mehnati va mulkiga mutlaq egalik qilish huquqidir. Jamg'arma ekspertlarining fikriga ko'ra, iqtisodiy farovonlik bilan indeks asosida baholangan iqtisodiy

erkinlik o'rtasida kuchli korrelyasiya bog'liqlik mavjud. Iqtisodiy erkinlik yig'ma indikator bo'lib, uning tarkibiga qonun ustuvorligi, davlat hajmi, reguliyativ samaradorlik va bozor ochiqligi kabi to'rtta ko'rsatkichlar tizimi mujassamlanadi.

Iqtisodiy erkinlik indeksida an'anaviy tarzda rivojlangan davlatlarning mavqeい yuqori va ushbu mamlakatlarda shakllangan iqtisodiy erkinlik darajasidan dalolat beradi. Indeks ko'rsatkichlariga qarab davlatlar erkin va erkin bo'limgan guruhlarga taqsimlanadilar. Iqtisodiy erkinlik indeksining asosan erkin mamlakatlar guruhidan MDHdan faqatgina bir mamlakat – Armaniston joy olgan. MDHning aksariyat mamlakatlari: Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Moldova, Belarus va Rossiya Federatsiyalari O'rtacha erkin mamlakatlar guruhidan o'rinishgan.

O'zbekiston va Tojikiston asosan erkin bo'limgan mamlakatlar guruhidan joy egallashgan.

Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiy erkinlik indeksi qaysi yildan va kim tomonidan nashr etib kelinadi?
2. Iqtisodiy erkinlik indeksi nechta va qanday yig'ma ko'rsatkichlardan tashkil topgan?
3. 2022 yil indeksi bo'yicha erkin mamlakatlar guruhiga qaysi davlatlar va qanday omillar hisobiga kirgan?
4. MDHning qaysi davlati asosan erkin mamlakat deb baholanadi?
5. Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning egallagan o'rnini yanada yaxshilash uchun birinchi navbatda qaysi yo'naliishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4047-sون Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 8 fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2019 yil 25 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'mini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4210-sонli qarori. <http://www.lex.uz/docs/4215422>
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York:

4. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.

5. Шваб, Клаус. Технологии Четвертой промышленной революции: [перевод с английского] / Клаус Шваб, Николас Дэвис. – Москва: Эксмо, 2018. – 320 с.

6. The Global Competitiveness Report 2017–2018 World Economic Forum. Geneva. 393 p.; Chapter 2: Key Findings of the Global Competitiveness Index 2017–2018 P. 12. www.weforum.org

7. Ўзбекистон халқаро рейтингларда. Нима учун ва қай тарзда ўз ўринларини яхшилаши керак? Center for Economic Research, UNDP Country Office in Uzbekistan. 5 б. www.cer.uz

8. Бородин К.Г. Теории международной торговли и торговая политика. Российский внешнеэкономический вестник. № 1 (Январь) 2006. С.9-18.

9. Дик А., Гуринов Е. Оценка международной конкурентоспособности стран по методике Всемирного экономического форума. Наука и инновации №11 (128) Ноябрь 2013. С.27-31.

10. Козырь Н.С. Подходы к определению глобальной конкурентоспособности. Финансы и кредит, 26 (2015) С. 39-52.

11. Хватов Ю.Ю. Сравнительный анализ международных рейтингов конкурентоспособности стран. Бюлєтень Міжнародного Нобелівського економічного форуму. 2012. № 1 (5). Том 2. С.390-398.

12. Конкурентоспособность национальных экономик и регионов в контексте глобальных вызовов мировой экономики: монография; в 3 т. / [Е. С. Аверкиева и др.]; Южный федеральный университет; под ред. А. Б. Яценко. – Ростов-на-Дону; Таганрог: Издательство Южного федерального университета, 2017. – Т.1. – 308 с.

13. Конкурентоспособность экономики: оценка и факторы роста в контексте интеграционных процессов. / М.Л. Зеленкевич [и др]; под общ. ред. З.Стаховяка, М.Л.Зеленкевич. – Минск: ГИУСТ БГУ, 2016. – 216 с.

14. <https://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

Asosiy adabiyotlar:

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: The Free Press, 1990. – 255 pp.
2. Xavier Sala-i-Martin, Jennifer Blanke, Margareta Drzeniek Hanouz, Thierry Geiger, Irene Mia, Fiona Paua. The Global Competitiveness Index: Measuring the Productive Potential of Nations. The Global Competitiveness Report 2007-2008. World Economic Forum 2007. 38 p.
